

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**


**BIOLOGIYA KAFEDRASI**

**O'SIMLIKLAR FIZIOLOGIYASI**

**fanidan**

**LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI**

**USLUBIY KO'RSATMA**



O'simliklar fiziologiyasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ushbu o'quvko'rsatma Oliy o'quv yurtlarining biologiya, tuproqshunoslik, ekologiya va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi, meva-sabzavot va u zumchilik ta'lif yo'nalishlarining o'quv rejasi asosida tuzilgan. O'quv ko'rsatmada o'simliklar fiziologiyasidan tajriba ishlari berilgan va har bir tajriba ishi uchun fotosuratlar va jadvallar taqdim etilgan. O'quv ko'rsatma Oliy o'quv yurtlarining biologiya va boshqa ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun ko'rsatma sifatida tavsiya etilgan.

**Tuzuvchi:** **TerDU Biologiya kafedrasи**  
katta o'qituvchisi b.f.n  
**TerDU Biologiya kafedrasи**  
o'qituvchisi

**Qodirova D.N.**

**Qoraboyeva D.J**

**Taqrizchilar:** **O'zSPE va KITI Surxondaryo ilmiy tajriba stantsiyasi direktori,**  
q.x.f.d., professor  
**TerDU Biologiya kafedrasи**  
katta o'qituvchisi b.f.n

**Aramov M. X.**

**Abdunazarov E.E**

**Ushbu uslubiy ko'rsatma Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Kengashining 2016 yil avgust 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.**

**Fanning uslubiy ko'rsatmasi Termiz davlat universiteti o'quv metodik kengashining 2016 yil " " -sonli majlisida tasdiqlangan va foydalanishga tavsiya qilingan.**

**Kelishildi:**  
**O'quv metodik boshqarma boshlig'i: dots. B.Imanov**

## **Kirish**

O'simliklar fiziologiyasi o'simliklarda bo'ladigan hayotiy jarayonlarni (suv almashinushi, fotosintez, mineral oziqlanish, nafas olish, o'sish, rivojlanish, moddalar almashinushi kabilarni) o'rGANADIGAN fandir. O'simliklar hujayralarida kechadigan barcha hayotiy jarayonlarni o'rganish, ularning normal o'sishini ta'minlash va shuningdek olib boriladigan barcha agrotexnik tadbirlar qishloq xo'jalik ekinlaridan olinadigan hosildorlikning keskin oshishiga va mahsulot sifatining sezilarli darajada ko'tarilishiga olib keladi. Yuqorida bayon qilingan jarayonlarni o'rganishda fiziologik-biokimiyoviy usullardan keng qo'lanilladi.

### **Yo'riqnomma Laboratoriya larida xavfsizlik texnikasi qoidalari.**

1. "Qoidalar" bilan talabalar tanishmaguncha frontal (hamma bir xil ish qiladigan) va hamma ayrim xildagi tajribalarni bajariladigan larni o'tkazmaslik.
2. Ish jarayonida faqat toza, quruq va yaxshi asboblardan foydalanish.
3. Hech qanday moddani ta'mini tatib ko'rmaslik, larda ovqat emaslik.
4. Laboratoriya xonasida hech qanday modda birovga bermaslik va o'z hohishi bilan talabalardan uyga hech qanday modda yoki buyumni olib ketishga yo'l qo'ymaslik.
5. Uchuvchan moddalarni ehtiyyotlik bilan hidlash.
6. Biror narsa quyilayotgan idish ustiga engashib qaramaslik (chunki suyuqlikning mayda tomchilari ko'zga sachrashi mumkin).
7. Bug'lanuvchi chinni idish ustiga engashib qaramaslik (chunki tomchilari va uchayotgan quruq zarrachalar betni kuydirishi mumkin).
8. Ko'zni saqlash (chunki zararli moddaning eng mayda tomchisi ham ko'zning ko'rish qobilyatini yo'qotishga olib keladi).
9. Qizdirilayotgan suyuqlik bor probirkani ushlab qizdirilayotganda uning og'iz tomoni o'zingizdan va o'rtoqlaringizdan chetga qaratish (chunki o'ta qizdirib yuborilganda suyuqlik qaynab chiqib betga sachrashi mumkin).
10. Probirkalarda moddalarnining eritmalarini qizdirish uchun ularni probirkaning 1/3 qismiga quyish.
11. Qattiq moddalarni faqat quruq probirkalarda qizdirish.
12. Shisha idishlarni qizdirilganda, ularni spirt lampasining piligiga tekkizmaslik (chunki pilik sovuq bo'lib idishni dars qilib sindirib yuborishi mumkin).
13. Qalin devorli shisha idishlar (bankalar, sklyankalar, silindrlar) va o'lchov idishlari, hamda chinni hovonchalarni alangada qizdirmaslik.
14. Spirt lampasining faqat gugurtdan foydalanib yoqish, lekin yonib turgan lanpaga qiyshaytirib yoqmaslik (chunki to'kilgan spirt alangaalanib ketishi mumkin).
15. Spirt lampasini faqat qalpoqchasi bilan o'chiring (puflamang).
16. Ichida suyuqlik bor probirkani chayqatishda probirkani barmoq bilan berkitish yaramaydi. Chayqatish uchun probirkal/ kolba yoki stakanning yuqori qismidan ushlab sekin tebratiladi.
17. Reaksiyani kuzatayotganda probirkani ko'zdan olisroq tutish kerak.

## I-BOB. O'SIMLIK HUJAYRASINING FIZIOLOGIYASI

Yashil o'simliklar har xil organlar yig'indisidan iborat bo'lib, bu organlar o'z navbatida to'qimalar va hujayralar birlashuvidan tuzilgan. Yuksak tuzilishga ega bo'lган har bir o'simlik organizmi murakkab sistema sifatida bir-biri bilan uzviy ravishda aloqada bo'lган organlar va funksiyalar yig'indisidan iboratdir. Bu birlikning asosini hujayralar tashkil etadi. Shakllangan mustaqil yadroga ega bo'lган o'simliklar - eukariot organizmlar deb ataladi. Ko'p hujayralik organizmlarda har bir to'qimani tashkil etuvchi hujayrada modda almashinuv jarayonining ma'lum bir funktsiyalari bajariladi. Shuning uchun ham ko'p hujayrali organizmlar, hujayralar yig'indisidangina iborat bo'lib qolmay, balki butun bir organizmni tashkil etuvchi to'qima va organlar yig'indisidan iboratdir. Ular funktsiyalarining o'zaro bog'liqligi natijasida umumiy metabolistik jarayon ro'yobga keladi.

### 1-Laboratoriya ishi. Traube "sun'iy hujayrasini" hosil qilish va suvning o'tishini kuzatish.

**Kerakli reaktiv va asboblar:** 0,25N li CuSO<sub>4</sub> eritmasi, 1N li K<sub>4</sub>Fe(CN)<sub>6</sub> eritmasi, K<sub>4</sub>Fe(CN)<sub>6</sub> tuzining kristali, kimyoviy stakanlar, probirka, pipetka, shtativ.


Ma'lumki, o'simlik hujayrasining tashqi qismi, qattiq hujayra qobig'i bilan o'ralgan bo'ladi. Hujayra qobig'i, hujayraga mexanik tayanch bo'libgina qolmasdan balki u,protoplazmatik membranani ichki bosimdan himoya qiladi va bundan tashqari muhitdan moddalarning hujayraga kirish jarayonida ham qatnashadi.

Hujayraga suv va suvda erigan moddalarning kirishi hujayra shirasidagi moddalarning konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni shira konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, uning osmotik bosimi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Hujayra qobig'idan keyin keladigan qism membrana qavati deb ataladi. Hujayra membranasi yarim, chala va tanlab o'tkazish xususiyatlari ega, ya'ni bu qavatdan suv tez va oson o'tadi, suvda erigan moddalar esa nisbatan sekin va qiyin o'tadi.


O'simlik hujayrasining yarim o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega ekanligini, ya'ni suvning tez va oson o'tishligini, suvda erigan moddalarning esa sekin o'tishligini Traube sun'iy hujayrasi misolida ko'rildi.

**Ishni bajarish tartibi.** Buning uchun hajmi 50 ml bo'lган kimyoviy stakan yoki 20 ml hajmli probirka olinadi va ularga 0,25 yoki 0,5N li mis sulfat eritmasidan solinadi. Stakan yoki probirkaga solingan eritma ustiga 1N li sariq qon- K<sub>4</sub>Fe(CN)<sub>6</sub> tuzi eritmasidan 2-3 tomchi pipetka uchi mis sulfat eritmasiga 1-1,5sm botib turgan holda tomiziladi. Pipetkadan oqayotgan sariq qon tuzi bilan mis sulfat o'rtasida kimyoviy reaksiya ketadi. Reaksiya ko'rinishi tubandagicha bo'ladi.



Bu reaksiyadan ko'riniib turibdiki, mis sulfat va sariq qon tuzining o'zaro birikishi natijasida mis-temir sineroid kompleks birikmasi hosil bo'ladi. Bu kompleks birikma, yarim o'tkazish xususiyatlari pardadan iborat bo'lib, u qoncha ko'rinishida bo'ladi. Hosil bo'lган yarim o'tkazish xususiyatiga ega bo'lган pardani Traube "sun'iy hujayrasi" deb ataladi. Xuddi shunday yarim o'tkazish xususiyatiga ega bo'lган pardani sariq qon tuzining kichik kristalini ipga bog'lab, mis sulfat eritmasiga tushirganda ham ko'rish mumkin.

Har ikkala usul bilan hosil qilingan parda orqali "qoncha" ichiga mis sulfat eritmasidan suv kira boshlaydi. Natijada qopcha hajmi kengayadi (kattalashadi).



## 1-rasm. Traube “sun’iy hujayrasi”ning hosil bo’lishini kuzatish.

Suvning sun’iy hujayra ichiga kirishi natijasida, hajmining kattalashuvi, olingan sariq qon tuzining konsentratsiyasiga bog’liq bo’ladi. Agar birinchi tajribada sariq qon tuzining eritmasi, mis sulfat eritmasiga nisbatan 2-4 marta katta bo’lgan bo’lsa, sariq qon tuzini kristal holda olgan paytda esa, uning konsentratsiyasi bir necha o’n martalab yuqori bo’ladi. Shuning uchun ham tajribani sariq qon tuzining kristali bilan olib borilganda, hosil bo’lgan sun’iy hujayra hajmining kattalashuvi ancha kuchli bo’ladi. Hosil bo’lgan “sun’iy hujayra” hajmining oshuvi bilan bir vaqtida ichki gidrostatik bosim ham oshadi. Mana shu gidrostatik bosimga bardosh bera olmagan hujayra qobig’i ma’lum vaqtdan keyin yorilib (yirtilib) ketadi. Hujayraning nobud bo’lishi bilan tuzlar orasida yana kimyoviy reaksiya ketadi va natijada birinchi holatdagidek, yarim o’tkazgich pardalarda qayta hosil bo’ladi. Bu “sun’iy hujayra” ham ma’lum kattalikgacha o’z hajmini oshiradi va u ham bora-bora nobud bo’ladi. Bu jarayon bir necha marta takrorlanadi.

Shunday qilib, bu tajriba orqali “sun’iy hujayraning” yarim o’tkazish xususiyatiga ega ekanligini (suvni oson o’tkazishligini, unda erigan moddalarning esa tutilib qolishligini) ko’rish mumkin. Tajribadan olingan natijalar daftarga yozib olinadi.

## 2-Laboratoriya ishi. Plazmoliz va deplazmoliz hodisalari. Plazmolizning turli formalari.

O’simliklar hujayrasidagi fiziologik jarayonlarni o’rganishda, biz plazmoliz hodisasi, turgor hamda deplazmoliz mohiyatini tushunib olishimiz lozim.

Tirik hujayraga gipertonik (ya’ni, so’rish kuchi hujayra shirasining so’rish kuchidan ortiq bo’lgan) eritmalar ta’sir qilinganda protoplazma bilan vakuoladagi suvning bir qismi chiqib ketishi sababli protoplast hujayra devoridan qochadi va plazmoliz hodisasi ro’y beradi. Plazmoliz bir necha xil bo’ladi. Boshlang’ich, botiq va qavariq shaklda. Bular protoplazmaning hujayra po’stidan ajralish darajasi bilan farqlanadi.

Protoplazma juda ham yopishqoq bo’lib, hujayra devoridan asta-sekin ajrala boshlaydi va buning natijasida botiq plazmoliz hosil bo’ladi, ya’ni protoplastning ba’zi bir qismlari hujayra devoriga yopishgan holda boshqa qismlari hujayra devoridan ajraladi, ayni vaqtda notekis bo’lib, qolgan yuzasining botiq tomoni hujayra devoriga qarab turadi. Shuning uchun ham **botiq plazmoliz** deyiladi.

Hujayra protoplazmasining hujayra po’stidan to’liq ajralib, o’rtaga to’planib qolishiga **qavariq plazmoliz** deyiladi.

Deplazmoliz - plazmolizlashgan hujayraga suv qayta shimalishi natijasida hujayraning dastlabki (turgor) holatiga qaytishidir.

Turgor – hujayra qobig’ining taranglik holati. Bu hujayra ichidagi suyuqlikning va tashqi eritmaning osmotik bosimi hamda hujayra qobig’ining elastikligi tufayli ro’y beradi. Turgor tufayli o’simlik to’qimalari tarang va mustahkam bo’ladi. O’simlik hujayrasidagi plazmoliz hodisasini o’rganish uchun asosiy ob’ekt sifatida qizil piyoz epidermisi ishlataladi, chunki hujayrani maxsus bo’yoqlar yordamida bo’yash talab qilinmaydi. Bunda hujayra va uning plazmolizi mikroskop ostida qaralganda juda yaxshi ko’rinadi. Hujayraga ta’sir etuvchi eritma sifatida KCl yoki NaCl va saxarozaning bir normal eritmasidan foydalaniladi.

**Ishning maqsadi.** O'simlik hujayrasida yuz beradigan plazmoliz va uning shakllarini, deplazmoliz jarayonini kuzatish.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Mikroskop, qizil piyozi, buyum oynasi, qoplagich oyna, ustara, qisqich, suvli stakan, pipetka, osh tuzining bir normal eritmasi.

**Ishni bajarish tartibi.** Plazmoliz va deplazmolizni kuzatish uchun qizil piyozi po'stidan ustara yoki igna yordamida yupqa kesma olinadi. So'ngra bu kesma buyum oynasiga qo'yilib ustiga distillangan suv tomiziladi va usti qoplagich oyna bilan yopiladi. Bu preparat mikroskop ostida kichik (8xli) ob'ektiv bilan kuzatiladi. Preparatdagi hujayralar bir tekis bo'yalgan va tarang holda bo'ladi (turgor holatda). Bu holatni chizib olib, kuzatishni davom ettirib, qoplag'ich oynaning bir chekkasiga NaCl ning bir normal eritmasidan pipetka yordamida bir tomchi tomiziladi. Preparatdagi suv esa qoplag'ich oynaning ikkinchi tomonidan filtr qog'ozga shmdirib olinadi. Bir necha daqiqadan so'ng protoplazma hujayra po'stidan ajralib (burchaklaridan) ichkariga tortila boshlaydi, ya'ni boshlang'ich plazmoliz boshlanadi. Kuzatuvni davom ettirib, protoplazmaning ko'plab ajrala boshlanganligini – botiq plazmolizni va nihoyat hujayra markaziga quyuqlashib, ya'ni qavariq plazmoliz ro'y berganligi kuzatiladi. Oradan biroz vaqt o'tgach, shu qoplagich oynaning bir chekkasidan (dastlabki suvni shmdirilgan tomonidan) bir necha tomchi toza suv tomizilib, ikkinchi tomondan (dastlabki eritmasi tomizilgan) filtr qog'ozi yordamida, qoplag'ich oyna ostidagi eritma shmdirib olinadi. Natijada, kesma hujayralari gayta suvni shimb oladi va turgor holatiga qaytadi, ya'ni deplazmoliz jarayoni sodir bo'ladi.

## 2-rasm. Plazmoliz hodisasi.

a- normal holatdagi hujayralar; b- botiq plazmoliz; v- qavariq plazmoliz.

### Vazifa:

1. Bir normal NaCl eritmasini tayyorlash.
2. Qizil piyozi epidermisidan kesma tayyorlash.
3. Preparat tayyorlab, mikroskop ostida kuzatish.
4. Mikroskopdan foydalanib plazmoliz shakllarini chizib olish.

## 3- Laboratoriya ishi. Turgor hodisasini kuzatish

**Ishning maqsadi.** O'simliklarning suvgaga to'yinishi natijasida hujayralar hajmining kengayib, taranglashish holatiga turgor hodisasi deb ataladi. Turgor hodisasini quyidagi tajribada kuzatish mumkin.

**Kerakli reaktiv va asboblar.** Kartoshka, 1N li KNO<sub>3</sub>, NaCl va saxaroza eritmalar, pichoq yoki lanset, lineyka yoki millimetrik qog'ozi, 4 ta Petri kosachasi yoki kimyoviy stakan, Pintset.

Odatda tabiatda o'sadigan o'simliklarning ko'pchiligi suvgaga to'yinmagan ya'ni suvgaga muhtoj holatda bo'ladi. Faqat suv o'simliklarigina suvgaga to'yungan bo'ladi. Yer ustida o'sadigan ayrim o'simliklar sutkaning ayrim vaqtlarida va kechki soatlarda, hamda ertalabki soatlarda, bulutli kunlarda yoki yomg'ir yoqqan paytlardagina suvgaga to'yungan bo'ladi, xolos.


**Ishni bajarish tartibi.** Buning uchun kartoshka olib, undan uzunligi 6-7 sm va eni 3-4 sm bo'lgan kesmalar tayyorlanadi. So'ngra, 4 ta Petri kosachasi yoki kimyoviy stakan olib, ularning birinchisiga 1N li KNO<sub>3</sub>, ikkinchisiga NaCl, uchinchisiga 1N li saxaroza eritmasidan, to'rtinchisiga esa distillangan suv solinadi.

Mana shu olingan eritmalarining har bittasiga kartoshkadan tayyorlangan kesmalar tushiriladi va 30-60 daqiqa tutiladi. Tajribaga ajratilgan vaqtning tamom bo'lishi bilan, kesmalar pintset yordamida eritmalaridan olinadi va lineyka yoki millimetr qog'ozini yordamida o'lchanadi va daftarga yozib olinadi. Tajribadan olingan natijalar asosida xulosa qilinadi.

### **3-rasm. Kartoshka bo'lakchasining shakli va hajmi (mm).**

#### **Vazifa:**

- 1.Kartoshkadan kesiklar tayyorlash.
- 2.Turli eritmalar tayyorlab, Petri kosachasi qo'yish.
- 3.Ishni bajarib, xulosasini daftarga yozish.



### **4- Laboratoriya ishi. Hujayra shirasining osmotik bosimini plazmoliz usulida aniqlash.**

Hujayra shirasining osmotik bosimi tirik o'simliklarning muhim ahamiyatga ega bo'lgan fiziologik jarayonidir.


Hujayra shirasi – o'simlikning tirik hujayrasidagi tsitoplazma ajratadigan suyuqlik. U vakuolalarni to'ldiradi. Hujayra shirasi suv va kolloid eritma ko'rinishidagi turli organik va mineral moddalardan iborat. Hujayra shirasining tarkibi o'simlik turiga, uning o'sish sharoitiga, yoshiga va ba'zi boshqa omillarga bog'liq bo'lib, u hujayraning osmotik xususiyatiga va turgor holatiga ta'sir etadi.

Osmotik bosim – suyuqlikda erigan moddaning diffuziya harakati tufayli yuzaga chiqaradigan bosimi. Osmotik bosim qonunlarini De-Friz, V.Pfeffer hamda Vant-Gof kashf etganlar. Osmotik bosimi bir xil bo'lgan eritmalar izotonik yoki izoosmotik eritmalar, agar bir eritmaning osotik bosimi boshqasinikiga nisbatan yuqori bo'lsa gipertonik, pastroq bo'lsa gipotonik eritma deyiladi. O'simlik hujayra suyuqligining osmotik bosimi ularning suyuq muhitda erigan moddalarining konsentrasiyasiga bog'liq. O'simlik shirasining osmotik bosimi ularning o'sish sharoitiga bog'liq. Shuning uchun ham o'simliklar hujayra shirasining osmotik bosimini o'rganish juda katta ahamiyatga ega.

**Mashg'ulotning maqsadi.** Hujayra shirasining osmotik bosimini plazmoliz usuli bilan aniqlash va bu jarayonning turli o'simliklarda har xil bo'lishini kuzatish.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Mikroskop, buyum oynasi, qoplag'ich oyna, ustara, igna, qizil piyoz, bir normal NaCl eritmasi, shtativ va probirkalar, suvli stakan, pipetkalar, 10 ml o'lchagich probirkalar.

**Ishning borishi.** O'simlik shirasining osmotik bosimini aniqlash uchun qizil piyozdan foydalanish mumkin. Buning uchun jadvalda ko'rsatilgan tartibda eritmalar tayyorlanadi. Eritmalarni tayyorlash uchun toza va quruq probirkalarga avvalo osh tuzining 1-jadvalda ko'rsatilgan miqdorlari solib chiqiladi.



So'ngra uning ustiga (jadvalda ko'rsatilgan miqdorda) suv solib chiqiladi va aralashtiriladi. Har bir probirkadagi eritmaning miqdori bir xil, ya'ni 10 ml bo'ladi. Eritmalar tayyor bo'lgandan so'ng so'limagan qizil piyozning po'sti sekinlik bilan igna yoki ustara yordamida ajratib olinib, jadvalda ko'rsatilganidek tayyorlangan turli konsentrasiyali eritmaga solinadi.

**4-rasm. O'simliklar**

to'qimasining osmotik bosimini aniqlash uchun ishlataladigan shtativva probirkalar

Eritmalarda qizil piyoz kesmalar 20-25 minut saqlanadi. Vaqt tugagandan so'ng har bir probirkadagi kesmalardan alohida preparatlar tayyorlanadi va ustini qoplag'ich oyna bilan yopib, mikroskopning (8<sup>x</sup>li) ob'yektivi orqali kuzatiladi. Ko'rildigani preparatda plazmoliz hodisasi ro'y berganligi, ya'ni sitoplazma hujayra po'stidan ajrala boshlangan vaqt boshlang'ich plazmolizni aniqlash kerak.

Agarda hujayra shirasining kontsentratsiyasi eritmaning kontsentratsiyasiga teng bo'lsa, plazmoliz hodisasi yuz bermaydi. Shu eritmaning kontsentratsiyasi izotonik kontsentratsiya deyiladi. Masalan, 0,3 n eritmada plazmoliz hodisasi kuzatilmaydi, ammo 0,4n eritmada esa plazmoliz hodisasi endigina boshlanganligi ko'rinsa, u holda izotonik eritma shu ikkita 0,3-0,4n eritmaning oraliq nuqtasida bo'ladi. Demak, izotonik eritma 0,35 ga teng bo'ladi. Kuzatuv natijalari 2-jadvalga yozib boriladi.

#### Vazifa:

1. Qizil piyoz epidermisidan kesmalar ajratib olib eritmaga solish.
2. Eritmalarda saqlangan kesmalardan preparat tayyorlab, mikroskop ostida kuzatish.
3. Hujayralarning rasmini chizish.
4. Formulaga muvofiq hujayra shirasining osmotik bosimini hisoblash.

### 5- Laboratoriya ishi. Hujayraning shimish kuchini Shardakov usuli bilan aniqlash

O'simlik hujayrasining osmotik xususiyatlari hujayraga tashqi muhitdan suv o'tish qonunlarini belgilaydi. Hujayraga suvning kirishi natijasida uning hajmi oshib borgan sari hujayra po'stining bosimi bilan hujayra shirasining shimish kuchi baravarlashib qoladi. Hujayra suvga to'yinmagan holatdan qancha uzoq bo'lsa (masalan, bug'lanish jarayoni natijasida suvni qancha yo'qotgan bo'lsa), shuncha ko'proq kuch bilan suvni so'radi. Shunday qilib, o'simlik hujayrasiga o'z-o'zini tartibga soluvchi osmotik mexanizm deb qarash mumkin. O'simlik hujayrasining suvga ehtiyoji ortgan sari u suvni ko'proq shimadi. Turgorni tamoman yo'qotgan vaqtida esa, uning shimish kuchi maksimum darajasiga yetadi. Bu vaqtida so'rish kuchi hujayra shirasining to'la osmotik bosmiga teng bo'ladi.

Osmotik bosim bilan shimish kuchining miqdori hamma vaqt ham bir xil bo'lmasligi mumkin. Ular tashqi muhit ta'siri va o'simliklarning ichki holatiga qarab o'zgarib turadi. Hujayralarning umumiyl xususiyatlarini ta'riflashda osmotik bosimning o'rta holati e'tiborga olinadi. Ammo ma'lum bir paytda, ayniqsa, tashqi sharoitning tez o'zgarishi natijasida, hujayra holatini belgilash uchun uning shimish kuchi topish qulayroq hisoblanadi.

Barg bo'lakchalarini eritmalarga tushirib, ularning kontsentratsiyalari o'zgarishi aniqlashning qulayroq yo'llaridan biri V.S.Shardakov taklif qilgan usuldir.

**Ishning maqsadi.** Turli xil kontsentratsiyalari osh tuzi eritmasi yordamida har xil o'simliklar hujayrasining shimish kuchini aniqlash.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** O'simliklar bargi, katta va kichik probirkalar bilan shtativ, bir normal NaCl eritmasi, distillangan suv, bargdan namuna oladigan parma, rezina plastinka, quruq metilen ko'ki, pinset, byuretkalar, kapilyar naylar.


**Ishni bajarish tartibi.** Bu ishni bajarish uchun o'simliklar to'qimasini har xil kontsentratsiyalari eritmalarga solib, shu eritma kontsentratsiyasining o'zgarish darajalarini hisobga olish usuli bilan aniqlash mumkin. To'qimaning shimish kuchi asosida eritmaning kontsentratsiyasi ortadi yoki pasayadi.

Bir normal NaCl eritmasidan shtativdagi katta probirkalarning har biriga 10 ml hajmda 0,1; 0,2; 0,3; 0,4; 0,5; 0,6; 0,7; 0,8; 0,9 normal eritmalar tayyorlanadi. Bu eritmalar tayyorlash usuli oldingi mashg'ulotdagi birlinchi jadvalda ko'rsatilgan. Eritmalar tayyor bo'lgandan so'ngra katta probirkadagi eritmadan 1 ml dan olib, ikkinchi qatordagi kichik probirkalarga qo'yiladi. Shtativdagi kichik probirkalarning hammasiga tekshiriladigan o'simlik bargidan parma yordamida 10-15 tadan kesmalar olib solinadi va 20-30 minut davomida saqlanadi. Shu vaqt ichida 2-3 marta chayqatilib aralashtiriladi. Vaqt tugagach, har qaysi probirkaga metilen ko'ki kristallaridan 1-2 don qo'shib eriladi. Natijada eritma ko'k rangga bo'yaladi.

So'ngra kapilyar naycha yordamida rangi eritmadan (3-4 sm balandlikda) olinadi. Bu naychani katta probirkadagi eritmaning yarmigacha botirib, rangli suyuqlikdan bir tomchi asta-sekin tomiziladi. Shu vaqtning o'zida rangli suyuqlik eritma ichida pastga yoki yuqoriga qarab harakatlanadi. Rangli eritma joyida to'xtab qolishi ham mumkin.

Agar to'qimaning shimish kuchi eritmanikidan yuqori bo'lsa, u eritma tarkibidagi suvni shimb oladi. Bu holda eritmaning mu'ayyan solishtirma og'irligi dastlabki solishtirma og'irligidan yuqori bo'ladi. Shuning uchun kapilyar nay ichidan oqib chiqadigan rangli eritma pastga qarab yo'naladi. Agar eritmaning shimish kuchi to'qimanikidan yuqori bo'lsa, eritma to'qima tarkibidagi suvni o'ziga tortib oladi. Bu holda kichik probirkadagi eritmaning mo'ayyan solishtirma og'irligidan past bo'ladi. Shuning uchun kapilyar nay ichidagi rangli eritma yuqoriga qarab harakatlanadi.

Agar to'qima bilan eritma orasida suv almashinuvi hodisasi yuz bermasa, eritmaning solishtirma og'irligi o'zgarmaydi. Unda kapilyar nay ichidan chiqayotgan rangli eritma o'z joyida qoladi (5- rasm).



### **5-rasm. O'simliklar to'qimasining shimish kuchini aniqlash**

a- to'qimaning shimish kuchi eritmanikidan yuqori bo'lganda; b- to'qimaning shimish kuchi eritmanikidan past bo'lganda; v – eritma bilan to'qimaning shimish kuchi teng bo'lganda.

Suyuqlik bilan to'qimaning shimish kuchi bir-biriga teng bo'lgan eritma aniqlangandan so'ng quyidagi tenglamadan foydalanib hujayraning shimish kuchi topiladi:

$$S = RTCI$$

Bu yerda: S – to'qimaning shimish kuchi (atmosfera hisobida);

R – gazlar konstantasi (0,0821);

T – absolyut harorat ( $273^0 +$  xona harorati);

C – izotonik eritma;

I – izotonik koeffisiyent (bu ko'rsatgich elektrolitik eritmalar uchun 1,5 ga teng).

### **Vazifa:**


1. Turli kontsentratsiyali eritmalar tayyorlash.
2. Tekshiriladigan o'simlik bargidan kesmalar tayyorlash va ularni eritmalariga solish.
3. Izotonik kontsentratsiyali eritmani aniqlash.
4. O'simliklar to'qimasining shimish kuchini hisoblab chiqish va xulosa.

## 6-Laboratoriya ishi. O'simlik to'qimasida osmotik hodisasini kuzatish.

**Kerakli reaktiv va asboblar:** Kartoshka, sabzi, lavlagi, olcha yoki saxaroza qiyomi, diametri 1- 1,5 sm li parma ( sverlo), tinqinga o'rnatilgan shisha naycha, kimyoviy stakan, pichoq.

Osmotik jarayonlarni yarim o'tkazgich parda bilan ajratilgan sistemalarda kuzatish mumkin. Masalan, yarim o'tkazgich parda bilan ajratilgan idish olib, uning bir tomoniga sof toza suv, ikkinchi tomoniga esa saxaroza yoki birorta tuz eritmasini solsak, suv yarim o'tkazgich parda orqali eritma tomon tez va oson o'tadi. Idishning ikkinchi tomonidagi suvda erigan modda molekulalari juda sekin diffuziyalaradi. Bunga sabab, konsentratsiyasi har xil bo'lган erituvchi va erituvchida erigan modda molekulalarining erkin energiyasi faolligining bir xilda bo'lmaslidadir. Toza suv molekulalarining kimyoviy potensial faolligi, erigan moddalar molekulalarining faolligidan ancha yuqori bo'ladi. Shu sababli ham modda molekulalarining harakati katta kimyoviy potensialdan kichik kimyoviy potensialga ega bo'lган moddalar tomoniga boradi. Suvda erigan moddalar molekulurasining eritma tarkibida ko'payishi suvning kimyoviy potensialini va uning faolligini keskin kamaytiradi. O'simlik hujayrasi ham osmotik sistemadan iboratdir. Yuqorida bayon qilingan fikrimizga tajriba orqali ishonch hosil qilish mumkin.

**Ishning bajarilishi.** Bu ishni bajarish uchun sabzi, kartoshka yoki lavlagi ildiz mevalari olinadi. Agar tajriba uchun sabzi olinadigan bo'lsa, avvalo uning tepa va past qismlari tekis qilib kesib tashlanadi. So'ngra esa diametri 1-1,5 sm bo'lган parma bilan 4-5 sm chuqurcha qilib teshib olinadi. Eslatib o'tamiz, chuqurcha tayyorlash paytida ildiz mevaning yon tomonlari va uning past qismini teshib yuborishdan ehtiyyot bo'lish kerak. Aks holda, tajriba ijobiy natija bermasligi mumkin.



Chuqurchani teshib bo'lgach, to'qimalarni suvgaga to'yintirish maqsadida ildiz mevani stakanga solingan suvgaga 20-30 daqiqa tushiriladi. Shu davr ichida olcha yoki saxarozadan qiyom tayyorlanadi. Tayyorlangan qiyomning tajribada ishlatiladigan naychadagi harakatini aniq ko'rish uchun unga bo'yoq moddasi qo'shiladi.

### 6-rasm. O'simlik to'qimasida shimish kuchini aniqlashda qo'llanadigan moslama.

So'ngra sabzi suvdan olinadi va undagi chuqurcha yangi tayyorlangan olcha yoki saxaroza qiyomi bilan to'lg'iziladi. Chuqurcha og'zi, ingichka o'lchovli shisha naycha o'rnatilgan tiqin bilan zinch qilib berkitiladi. Tiqinni berkitayotganda qiyom bilan tiqin o'rtasida va naychada havo pufakchalarini qoldirmaslikka harakat qilish kerak. Bu ishlarni amalga oshirib bo'lgach, ildiz meva stakandagi suvgaga tushiriladi. Ildiz mevani stakanga tushirganda, uning og'ziga berkitilgan naycha o'rnatilgan tiqin suvgaga botib qolmasligi kerak, ya'ni suv satxi tiqindan 1-1,5 sm pastda tursa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu usulda suvga tushirilgan ildiz meva 40-60 daqiqa davomida stakanda saqlanadi. Shu vaqt ichida o'simlik to'qimasini bilan eritma o'rtasida osmotik jarayon sodir bo'lib, natijada to'qima tarkibidagi suv, chuqurchadagi eritmaga o'tadi. To'qima (ildiz meva) esa, o'z navbatida yo'qotgan suv o'rnini to'ldirish uchun tashqaridan suv tortib ola boshlaydi. Tashqaridan suvning to'qima orqali o'tishi, chuqurchaga solingan qiyom konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, suvning ildiz meva orqali o'tishi ham shuncha kuchli bo'ladi. Suvning qiyom tomonga o'tishi qancha ko'p bo'lsa,

uning hajmi ham shuncha kengayadi. Qiyom hajmining ortishi, naycha bo'ylab uning ko'tarilishiga olib keladi.

Agar shu tajriba o'lik to'qimalarda olib borilsa, yuqoridagi osmotik hodisa kuzatilmaydi. Chunki, osmotik hodisa va shu tufayli sodir bo'ladigan osmotik bosim, faqat yarim o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tirik hujayralarda kuzatiladi.

### Vazifa:

1. Tajribadan olingan natijalar daftarga yozib olinadi.

## 7-Laboratoriya ishi. Hujayraga moddalarning o'tishi va unda to'planishi.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** 1,2 % li kraxmal eritmasi, yod eritmasi, sellofan qog'ozi, kimyoviy stakan, shisha tayoqcha, pichoq, ip.

Ma'lumki, o'simliklarga suv va suvda erigan moddalar hujayra membranasi orqali o'tadi. O'simliklarning hujayra membranasi yarim o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega, ya'ni bir xil moddalarni tez va oson o'tkazadi, bir xillarini esa, aksincha juda sekin va qiyinroq o'tkazadi. Mana shu fikrimizni quyidagi tajribada ko'rib chiqamiz.

**Ishning bajarilishi.** Bu ishni bajarish uchun o'zining ko'rinish jihatidan, o'simlik hujayrasi membranasidek, yarim o'tkazish xususiyatiga ega bo'lgan xaltacha tayyorlab olinadi. Shunday yarim o'tkazgich parda vazifasini, kollodiy eritmasidan yoki sellofan qog'ozidan tayyorlangan xaltacha bajaradi.


Agar yarim o'tkazgich xususiyatlari xaltachani, kolloid eritmasidan tayyorlash zaruriyati tug'ilib qolsa, bu eritma og'zi keng, toza yuvilib quritilgan probirkaga solinadi va probirka qiyshaytirilgan holda bir tekisda aylantiriladi. Buning natijasida eritma probirka devoriga bir tekisda yopishib, yupqa qavatli plenka hosil qiladi. Ortib qolgan kollodiy eritmasi boshqa idishga olinadi. Probirkani qo'lda ishqlash yo'li bilan sal qizdiriladi. Ma'lum vaqtadan so'ng esa probirka sovuq suv bilan chayqab tashlanadi va probirka devoriga ilashgan kollodiy parchasi sekin-asta pinset bilan devordan ajratiladi. Mana shu ajralgan joyga bir necha tomchi suv tomizilsa, parda probirka devoridan osongina xaltacha ko'rinishida ko'chib chiqadi. Xaltachaning butunligini puflab ko'rish bilan aniqlanadi.

**8-rasm.** Moddalarning hujayraga kirishi va unda to'planishini ko'rsatadigan moslama.

a- 2% li kraxmal eritmasi qo'yilgan kollodiy qopcha.

b- yod eritmasi qo'yilgan stakan.

c- kollodiy qopchani osib qo'yishga mo'ljallangan shisha tayoqcha.



Kollodiy yoki sellofandan tayyorlangan xaltachaga 2% li kraxmal eritmasidan solib, og'zi ip bilan bog'lanadi va stakandagi oldindan tayyorlab qo'yilgan yodning kuchsiz eritmasiga rasmida ko'rsatilgandek (7-rasm) shisha tayoqchaga bog'lab, osib qo'yiladi. Oradan ma'lum daqiqalar o'tishi bilan xaltacha ichidagi kraxmalning ko'kara boshlaganini, ayni vaqtida esa tashqi eritmaning rangi o'zgarmasdan qolganligini kuzatish mumkin. Tajriba kuzatishlari yarim o'tkazgich parda orqali chin eritma ionlari-kristalloidlarning (yod ionlarining) o'tishini, kolloid zarrachalarining (kraxmal mitsiliyalarining) esa, tutilib qolganligini ko'rsatadi. Ma'lum vaqtadan keyin xaltacha ichida to'q-to'q rangning hosil bo'lishini, tashqi yod eritmasining esa rangsizlanib borishligini ko'rish mumkin.

Bu o'z navbatida yod ionlarining xaltacha ichiga kirib, kraxmal bilan birikish natijasida yod-kraxmal kompleks birikmasini hosil bo'lganligi sababli, uning tashqi eritmaga qaytib chiqa olmasligini ko'rsatadi.

## Vazifa:


- 1.Tajribadan olingen ma'lumotlar daftarga yozib olinadi
- 2.Talabalar o'rtasida muhokama qilinadi.

### 8-Laboratoriya ishi. Tirik va o'lik hujayra membranasining hujayra shirasi moddalarini o'tkazuvchanligi

Protoplazmaning plazmolemma va tonoplast qavatlari (zararlanmagan tirik hujayralaridagi) hujayra shirasida bo'lgan moddalarni tashqariga chiqarmaydi. Agar hujayra nobud bo'lsa, protoplazmaning bu qavatlarining o'tkazuvchanlik xususiyati buziladi va hujayra shirasidagi moddalar osonlik bilan tashqi eritmaga chiqadi va bo'yaladi.

Avvalo biz protoplazma va uni o'rabi turuvchi plazmolemma, tonoplast qavatlari bilan tanishaylik. Protoplazma – tirik hujayra ichidagi yarim suyuqlik va sitoplazma yadro va boshqa organoidlaridan iborat bo'lib, hayotning asosiy substrati hisoblanadi. Plazmolemma - hujayra po'sti bilan sitoplazmaning ichki qismlarini uzviy bog'lab, ularning o'zaro munosabatini ta'minlaydi. Elektron mikroskop ostida kuzatishlardan plazmolemma 7,5-9,5 nm qalinlikdagi yupqa membrana ekanligi aniqlanadi. Ko'ndalang kesimida u silliq bo'lib, ko'rindi, ustki tomondan qaraganda granulali tuzilishga ega.

U mozaik yoki globulyar tuzilish sxemasida bo'ladi (2-rasm). Plazmolemma hujayrada bo'lib turadigan o'tkazuvchanlik jarayonini va moddalarning shimalishini tartibga solib turadi.



**6- rasm. Membrananing mozaik va globulyar tuzilishi.**

A - mozaik tuzilish sxemasi; B - globulyar tuzilish sxemasi; 1 - lipidlar qo'sh qavati; 2 - oqsil qavati; 3 – glikolipidlar; 4 – glikoproteinlar; 5 - membrananing tashqi yuzasi; 6 - membraning ichki yuzasi.

O'simlik hujayrasining markazida ko'pincha hujayra shirasi bo'lib, tashqi tomondan **tonoplast** bilan o'ralgan. Dastlab tonoplast ko'pincha plazmolemmaga qaraganda bir muncha zinch va mustahkamroq tuzilgan bo'ladi. Tonoplast membranasimon bo'lib, qalinligi jihatdan plazmolemmaga o'xshaydi. Tonoplast ham plazmolemma singari yarim o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega va hujayra hayot faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Tirik hujayraga turli xil noqulay fizik-kimyoviy ta'sir ko'rsatganimizda hujayraga moddalarning shimalishi va uning o'tkazuvchanligi buziladi. Ya'ni, membranalar shikastlanib, hujayradan shira chiqib ketadi.

**Ishning maqsadi.** O'simlik hujayrasiga fizik-kimyoviy ta'sir ko'rsatib, tirik va o'lik protoplazmaning hujayra shirasiga nisbatan o'tkazuvchanligini aniqlash.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Qizil lavlagi, probirkalar, spirit lampasi, sirka kislotaning 30% eritmasi, 50% etil spirti, xloroform, suv, shtativ va menzurka.

**Ishni bajarish tartibi.** Qizil lavlagidan 4 burchak qilib kubik shakllidagi kesmalar ( $0,5-1,0 \text{ sm}^3$ ) kesib olinadi. Ular vodoprovod suvida suv tiniq bo'lguncha yaxshilab yuviladi.

Shu tarzda tayyorlangan lavlagi bo'lakchasidan shtativdagi 5 ta probirkaga 2 yoki 3 tadan solib chiqiladi va bu probirkalarga umumiy hajmi 5 ml dan quyidagilar solinadi:

1. Sovuq suv;
2. 2-3 daqiqa davomida suvda qaynatiladi va suvi to'kib tashlanadi, o'rniga sovuq suv solib qo'yiladi;
3. 30% sirka kislotasi;
4. 50% etil spirti;
5. sovuq suv va 10 tomchi xloroform.

Hamma probirkalar probka bilan bekitilib, 30 minut kuzatiladi. So'ngra ular yaxshilab chayqatilib, shtativga qo'yiladi va har bir probirkada hosil bo'lgan rang darajasi aniqlanadi. Natijalar jadvalga yozilib, kerakli xulosa bilan yakunlanadi.

#### Vazifa:

1. Qizil lavlagidan kubiklar kesish.
2. Turli eritmalar tayyorlab, probirkalarga qo'yish.
3. Probirkalardagi eritmalar rangining o'zgarishini kuzatish va jadvalga yozish.
4. Ishni bajarib, xulosasini daftarga yozish.

## II-BOB. O'SIMLIKLARNING SUV REJIMI

Suv o'simliklar organizmida sodir bo'ldigan barcha jarayonlarda faqat ishtirok etmasdan, balki o'simliklar tanasida tetikligini saqlashda va to'qimalar bir hil haroratda saqlanishini ta'minlashda muhum omil hisoblanadi. Suv tarkibidagi vodorod ionlari CO<sub>2</sub> gazining organik moddalargacha o'zgarishida sarflansa, kislorod aerob organizmlarning nafas olishida foydalaniladi.

### 9-laboratoriya ishi.O'simlikka yutilayotgan suv miqdorini potometr yordamida aniqlash.

Suvning o'simlik tanasi bo'y lab harakatlanishida barglar hujayrasining shimish kuchi katta ahamiyatga ega. Bu kuch ba'zan bir necha o'n atmosfera bosimiga tenglashib qoladi.

**Ishning maqsadi.** Talabalarga o'simliklar novdasining suv shimish tezligini potometrda aniqlashni tushuntirish va kuzatish.

**Asbob va reaktivlar.** O'simlik novdasi, potometr, qaynatilgan sovuq suv, qaychi, tarozi, lineyka.

**Ishni bajarish tartibi.** Bu mashg'ulotni o'tkazish uchun 500 ml hajmli silindrga qaynatilgan sovuq suv to'ldiriladi. Silindr og'ziga mos kelgan kauchuk tiqinda ikkita teshik teshilib, ularning biriga o'simlik novdasi, ikkinchisiga egri shisha nay o'rnatiladi. Nayga millimetrali qog'oz ham yopishtiriladi. O'simlik novdasi tiqinga o'rnatilgandan so'ng silindr shu tiqin bilan mahkam berkitiladi. Silindrda ortiqcha suv tiqin yonidan va egri nay orqali siqib chiqariladi. Tiqin bilan silindrda suv sathi orasida havo pufakchalari bo'lmasligi shart. Tiqin orqali suv bug'lanmasligi uchun uning aylanasiga vazelin surkaladi. Egri nay ichidagi suvning sathi (millimetrali qog'oz) ga belgi qo'yilib, tajriba boshlangan vaqt yozib qo'yiladi. Oradan 30 minut o'tgach, shimalgan suv miqdori aniqlanadi (8-rasm). Buning uchun avvalo nay yuzasini  $S=\pi r^2$  formuladan topish kerak. Shimilgan suv miqdori (P) ni aniqlash uchun yuqorida formula bo'yicha hosil qilingan son nay ichidagi kamaygan suvning balandligi (h) ga ko'paytiriladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:


$$P=S \cdot h$$

Barglarning umumiy sathini topish uchun 200 yoki 400 sm<sup>2</sup> sathli qog'oz tarozida tortilib, vazni aniqlanadi. So'ngra o'sha qog'ozning sifatiga mos keladigan ikkinchi qog'oz olib, novdadagi hamma barglarning shakli shu qog'ozga alohida-alohida chizib chiqiladi. Qog'ozga tushirilgan barg shakllari qaychi bilan qirqib olinib, ularning umumiy vazni aniqlanadi. Hosil qilingan sonlarga asoslanib, barglarning umumiy sathi topiladi. Masalan, 400 sm<sup>2</sup> qog'ozning vazni 0,5 gr, barglarning shakli chizilgan qog'ozning vazni 0,8 gr deb faraz qilaylik. Bunda quyidagicha proportsiya tuziladi:

400-0,5

0,8 x 400      320

$$\frac{x-0,8}{0,5} = \frac{=}{0,5} = 640 \text{ cm}^2$$



### 10-rasm. Potometr.

#### Vazifa:

1. Har xil tur o'simliklarning novdalarini tayyorlash.
2. Mustaqil Potometr asbobini yasab unda o'simliklar novdasining suv shish tezligini aniqlash va kuzatish.
3. Olingan ma'lumotlar asosida xulosalar qilish

### 10-laboratoriya ishi. Transpiratsiya jadalligini torzion tarozida aniqlash


Traspiratsiya o'simlik tanasida sodir bo'ladigan eng muhum fiziologik jarayonlardan biridir. O'simlik tanasi orqali suvning bug'lanishiga traspiratsiya deyiladi. Traspiratsiya jadalligi deb muayyan barg yuzasidan ma'lum vaqt davomida bug'latilgan suv miqdoriga aytildi.

**Ishning maqsadi.** Yoz oylarida o'simliklarning suvni tejab sarflash xususiyatlarini o'rghanishdan iboratdir.

**Kerakli jihozlar:** termostat, torzion tarozi, sekundomer, qog'oz qopchalar, qaychi, daftар, qalam, chizg`ich.

**Ishni bajarish tartibi.** Ish A.A. Ivanov (1950) uslubi bo'yicha bajariladi. Traspiratsiya jadalligi torzion tarozi yordamida barglarni tezlik bilan tortish yo'li orqali aniqlanadi. Bunda kun davomida, har 2 soatda (takrorlanishi 2-3 marta), ya'ni ertalabki soat  $8^{00}$  dan kechqurungi soat  $20^{00}$  gacha o'simlik bargining dastlabki og'irligi. So'ngra 3 minutdan keyingi og'irligi tortiladi va daftarga yozib olinadi hamda og'irligi ma'lum bo'lgan bu barg raqamlangan qog'oz qopchalarga solinadi. Har 2 soatda bargni tortishdan avval havo harorati va havoning nisbiy namligi Asman psixrometri orqali o'lchanib turiladi va ko'rsatkichlar daftarga yozib boriladi. Ishning oxirida raqamlangan qopchalarga solingan o'simlik barglari termostatda  $105^{\circ}\text{C}$  da og'irligi o'zgarmagunga qadar quritiladi va quritilgandan keyingi og'irligi ham tortiladi (namunadagi suvning miqdori aniqlanadi). Og'irligi yana daftarga yozib olinadi va quyida keltirilgan formula asosida traspiratsiya jadalligi hisoblanadi, jadval to'ldiriladi, xulosa qilish bilan ish yakunlanadi.

### 11-rasm. Torzion tarozi



#### Vazifa:

1. Transpiratsiya jadalligini aniqlash uchun yorug'likda va soyada o'sayotgan o'simliklarni tanlash.
2. Transpiratsiya jadalligini aniqlash.
3. Olingan ma'lumotlar asosida xulosalar qilish.

### 11-laboratoriya ishi. Transpiratsiya jadalligini hajmiy usulida aniqlash.

Transpiratsiya jadalligi  $1 \text{ m}^2$  barg sathida bir soatda bug'langan suv miqdoriga qarab aniqlanadi. O'simlikning o'sish davrida bir gramm quruq modda hosil qilish uchun

sarflangan suv miqdori transpiratsiya koeffisiyenti deb ataladi. O'simlik turiga qarab transpiratsiya koeffisiyenti 200-300, hatto 1000 dan ortiq bo'lishi mumkin. Ma'lum miqdorda suv sarflanganda o'simliklarda hosil bo'lgan quruq modda miqdori transpiratsiya mahsuldarligini belgilaydi. O'simliklarda transpiratsiyani o'rganish usullari 3 xil bo'ladi.

1. Transpiratsiya naijasida o'simlik og'irligida hosil bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olish.
2. O'simlik ajratgan suv bug'larini to'plash va hisobga olish.
3. Transpiratsiya vaqtida yo'qotgan suv o'rniga o'simlik so'rib oladigan suv miqdorini hisobga olish.

Biz quyida o'simlikning bargli novdasini tarozida tortib, uning og'irligida hosil bo'lgan o'zgarishni hisobga olib, transpiratsiya jadalligini aniqlaymiz.

**Mashg'ulotning maqsadi.** Har xil o'simliklar tanasidagi transpiratsiya jadalligini tarozida o'lchash usuli bilan aniqlash va ularni taqqoslash.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Tarozi, qaychi, millimetrlarga bo'lingan qog'oz, egilgan nay yoki kolbacha, suv, ip, har qaysi eritma uchun alohida pipetka.



**Ishning borishi.** Suvli egilgan nay yoki kolbacha olinib, unga suv ostida qirqib olingan 3-4 bargli novda joylanadi. Kolbachadagi suv bug'lanmasligi uchun uning ichidagi suv yuzasida yupqa parda hosil bo'lguncha moy tomiziladi. Tayyorlangan o'simlikli kolba tarozining bir pallasiga o'rnatiladi, uning og'irligi o'lchanadi, o'lchangan vaqt va og'irligi yozib qo'yiladi. Bir soat vaqt o'tgandan keyin qayta o'lchanadi (14- rasm), shundan keyin barglar sathi aniqlanadi.

14 – rasm. Transpirasiya jadalligini tarozida tortish yo'li bilan aniqlash

Buning uchun barglar novdadan uzib olinib, qog'oz ustiga bir tekis qilib yoyib qo'yiladi. So'ngra yaxshi uchlangan qora qalam bilan barglarning shakli chizib olinadi. Shu tartibda qog'ozga chizilgan barg konturi qaychi yordamida kesib olinadi va og'irligi aniqlanadi. Shunday qog'ozdan to'rt tomoni 10 sm dan qilib kvadrat kesib olinadi va u ham tarozida tortiladi. So'ngra barg sathi quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi:

$$\frac{a}{B} = \frac{c}{s}$$

$$\text{Bunda } S = \frac{b \cdot C}{a}$$

Bunda S- barg sathi ( $\text{sm}^2$  hisobida);

S- kvadrat qog'oz sathi;

v- barg shakli chizilgan qog'oz og'irligi;

a – 100  $\text{sm}^2$  qog'oz og'irligi.

Bargli novdaning oldingi og'irligi bilan keyingi og'irligi va barg sathlari orqali qancha suv bug'langanligi aniqlanib olingandan keyin transpiratsiya jadalligi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$Tr = \frac{q \cdot 60 \cdot 1000}{s \cdot t} \text{ g/m}^2 \text{ min}$$

Bunda: q – bug'langan suv miqdori (g),

S – barg sathi ( $\text{sm}^2$ ),

t- tajriba muddati (daqiqa),

60 – daqiqa (tajribani davom etish vaqt),

1000 –  $\text{sm}^2$  ni  $\text{m}^2$  ga aylantirish koeffitsiyenti

### Vazifa:

1. O'rganiladigan o'simliklardan bargli novda tayyorlash.
2. Bargli novdani tarozida tortib og'irligini aniqlash.

3. Bir soat mobaynida suv parlatgan barglarning konturini chizib, ularning sathini aniqlash.
4. O'simliklarning transpiratsiya jadalligini aniqlash va xulosa.

## **12- Laboratoriya ish. Transpiratsiya intensivligini ajralib chiqqan suv miqdoriga qarab aniqlash.**

**Kerakli asbob va reaktivlar:** O'simlik novdasi, 30% li  $\text{CoCl}_2$  eritmasi, filtr qog'oz, qisqich, buyum oynasi, soat.

Transpiratsiya intensivligini aniqlashning eng oddiy va oson usullaridan biri kobalt xlorid tuzi singdirilgan qog'oz yordamida aniqlashdir. Bu usul kobalt xlorid eritmasi singdirilgan filtr qog'oz rangining o'zgarishiga asoslangan. 30% li  $\text{CoCl}_2$  eritmasi singdirilgan filtr qog'ozi quruq sharoitda ko'k havo rang, namli sharoitda esa pushti rang beradi. Shuning uchun ham  $\text{CoCl}_2$  eritmasi bilan to'yintirilgan filtr qog'ozi quritgich shkafida quritilgach,  $\text{CaCl}_2$  yoki  $\text{H}_2\text{SO}_4$  si solingan eksikatorlarda saqlaniladi. Kobalt xlorid eritmasi singdirilgan qog'ozni transpirometr deb ataladi.

**Ishning bajarilishi.** Tajriba boshlanishdan avval, transpirometr eksikatorдан pinset yordamida olinadi va torzion tarozida tortib olinadi. So'ngra esa tajriba uchun ajratilgan tabiiy sharoitda o'sayotgan o'simlik bargi ustiga yoki uning tag tomoniga transpirometr qoplanadi. Havo tarkibidagi suv bug'larining transpirometrga ta'sir qilishidan himoyalash maqsadida, uning ustiga buyum oynasi qo'yiladi va qisqich bilan siqib qo'yiladi. Tajriba 10-15 daqiqa davomida olib boriladi. Mo'ljaldagi vaqtning tamom bo'lishi bilan qisqichlar olinadi va transpirometr torzion tarozida tortilib, uning og'irligi aniqlanadi.

Transpirometr og'irligi, klimatik sharoitga qarab, har xil miqdorda o'zgarishi mumkin. Shu transpirometr yuzasiga qarab, barg sathi topib olinadi va shu asosda transpiratsiya intensivligi aniqlanadi. Tajribadan olingan ma'lumotlar yuqoridagi jadvalga yozib olinadi va ulardan xulosa qilinadi.

## **13-Laboratoriya ishi. O'simliklarda suv bug'lanishiga kutikula va po'stloqning ta'sirini o'rganish.**


O'simliklar sharoitga qarab, suvni turlicha qabul qiladi. Asosan tuproqdan ildiz tukchalarini orqali shimb oladi. Shimilgan suv osimliklarning o'tkazuvchi naychalarga o'tadi. Naylar ichidagi kontsentrlangan eritma tomonidan aktiv shimilgan suv hisobiga hosil bo'lgan kuch ta'sirida o'tkazuvchi naylar ichidagi shira yuqoriga ko'tariladi. Suv va eritmalarini harakatlantiruvchi kuch ildizlarning bosim kuchi deb ataladi.

**Ishning maqsadi.** Talabalarga ildizlarning bosim kuchini tushuntirish va kuzatish

**Asbob va reaktivlar.** Biror xil o'simlik, kauchuk nay, egri shisha nay yoki shisha manometer, ustara yoki o'tkir pic hoq, shisha nay ichiga quyish uchun rangli suv.

**Ishni bajarish tartibi.** Ildizning bosim kuchini aniqlash uchun qishda bargli fuksiya, yozda pomidor, makkajo'hori poyasidan va bodring, qovoq, qovun palagidan foydalanish yahshi natija beradi. Tekshiriladigan o'simlikning poyasi er yuzasidan 3 sm balanddan kesiladi. Poyaning er yuzasida qolgan qismi, ya'ni to'nkachasiga kalta kauchuk nay o'rnatilib, unga shisha nay kiygiziladi (6-rasm). So'ngra shisha nay ichiga rangli suv quyib, suvning sathi belgilanadi. To'nkacha atrofidagi tuproq namiqtirib sug'oriladi. Kuzatish davrida shisha nay ichidagi dastlabki suv kamayadi va oradan bir oz vaqt o'tgandan keyin yuqoriga ko'tarila boshlaydi.

Suvning yuqoriga ko'tarilishi ildiz bosimiga bog'liq. Bosim kuchi qancha kuchli bo'lsa, nay ichidagi suv shuncha tez ko'tariladi.



## 8-rasm. Ildizlarning bosim kuchini kuzatish

(Monometr)

Vazifa:

1. Har xil tur o'simliklarni tuvakda o'stirish.
2. Tanlangan o'simlikda ildizlarning bosim kuchini kuzatish.
3. Olingan ma'lumotlar asosida xulosalar qilish

## 14-Laboratoriya ishi. O'simliklarni suv kulturasida o'stirish hamda asosiy oziqa elementlarini ta'sirini o'rganish.

**Mashg'ulotning maqsadi.** O'simliklarning o'sishi va rivojanishiga zaruriy barcha mineral elementlarning ta'siri va biror element yetishmaganda o'simlik o'sishi hamda rivojlanishining zaralanish jarayonini kuzatish.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Hajmi 500 ml bo'lgan menzurkalar, parafin, doka, gaz gorelkasi, qisqich, qalam, termostat, universal indikator, ip, lineyka, shtativ, filtr qog'ozi, pinset, 0,5 litrli idish, paxta, tarozi toshlari, pallali tarozi, qaychi, igna, 0,1 n HCl, 0,1n NaOH, Ca(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, K<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub>, MgSO<sub>4</sub> · 7H<sub>2</sub>O, KCl, Fe<sub>2</sub>Cl<sub>6</sub>, Na<sub>2</sub>H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub> · H<sub>2</sub>O, NaCl, CaSO<sub>4</sub> · 2H<sub>2</sub>O, bug'doy, arpa, makkajo'xori, bodring, mosh, g'o'za urug'lari.

**Ishning borishi.** Suvli muhitda o'simliklarni o'stirish bo'yicha qilinadigan tajriba uzoq vaqtini va quyidagi jarayonlarni bajarishni talab etadi:

**Tajribaga tayyorgarlik.** Tajriba uchun ishlatiladigan idishlar chinnidan tayyorlangan stakanlar bo'lib, ularning hajmi 500 ml bo'lishi kerak. Bu stakanlarning og'zi parafinlangan doka yordamida yopiladi. Buning uchun gaz plitkasida parafin eritilib, dokalar stakanning og'zi hajmiga moslab kesiladi va erigan parafinga tashlab shmdiriladi, keyin qisqich yordamida parafin shmdirilgan doka olinib, stakanning og'ziga qo'l bilan mahkamlanadi. Stakan og'zidagi parafinli doka qotgandan so'ng qisqich yoki qalam yordamida bir xil kattalikdagi 5-6 teshik qilinadi. Agarda chinnidan ishlangan stakanlar bo'lmasa, u vaqtida shisha stakanlar ishlatilib, uning atrofi yorug'lik nuri o'tkazmaydigan qog'oz yordamida o'rabb qo'yiladi.

**Urug'ni undirish usullari.** Petri kosachasiga filtr qog'oz yozib, uning ustiga katta-kichikligi bir xil bo'lgan va zararlanmagan 100-200 dona ivitilgan urug' joylanadi (19-rasm). Usti filtr qog'oz bilan

19 rasm. Urug'ni undirish usullari

a- Petri idishida; b-tunuka vannada undirish; v-suv to'ldirilgan shisha bankaga o'rnatilgan ildiz otgan maysalar

namlanib yopiladi va 10-20 ml distillangan suv qo'yib 25° issiqlikdagi termostatda undiriladi. Suvli muhitida o'stirish uchun bug'doy, makkajo'xori, arpa, bodring, mosh, g'o'za urug'larini ishlatish mumkin.

**Turli xil oziqali eritmalar tayyorlash.** Bu tajribada quyidagi eritmalar ishlatiladi:

To'liq oziqali eritma (Knop eritmasi);  
azotsiz eritma; kaliysiz eritma; fosforsiz eritma.

**Har bir eritma jadvalda ko'rsatilgan tartibda 1 litrdan tayyorlanadi va ular belgilab qo'yiladi.**

Nº	Tuzlarning nomi	Formulasi	1 l eritmaga tuz miqdori (g)
To'liq ozuqali eritma			
1.	Kalsiy nitrat	Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	1,00
2.	Kaliy hidrofosfat	K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub>	0,250
3.	Magniy sulfat	MgSO <sub>4</sub> · 7H <sub>2</sub> O	0,250
4.	Kaliy xlorid	KCl	0,125
5.	Temir xlorid	Fe <sub>2</sub> Cl <sub>6</sub>	0,0125
Kaliysiz eritma			

1.	Kalsiy nitrat	$\text{Ca}(\text{NO})_2$	1,00
2.	Natriy digidrofosfat	$\text{Na}_2\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$	0,250
3.	Magniy sulfat	$\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$	0,250
4.	Natriy xlorid	$\text{NaCl}$	0,90
5.	Temir xlorid	$\text{Fe}_2\text{Cl}_6$	0,0125
Fosforsiz eritma			
1.	Kalsiy nitrat	$\text{Ca}(\text{NO})_2$	1,00
3.	Magniy sulfat	$\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$	0,250
4.	Kaliy xlorid	$\text{KCl}$	0,255
5.	Temir xlorid	$\text{Fe}_2\text{Cl}_6$	0,0125
Azotsiz eritma			
1.	Kalsiy sulfat	$\text{Ca}(\text{NO})_2$	1,00
2.	Kaliy digidrofosfat	$\text{K}_2\text{HPO}_4$	0,250
3.	Magniy sulfat	$\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$	0,250
4.	Kaliy xlorid	$\text{KCl}$	0,125
5.	Temir xlorid	$\text{Fe}_2\text{Cl}_6$	0,0125

Maysalarni chin barg yozguncha o'stirish. Hajmi 2 litrli sirlanganan idishlar suvgaga to'ldirilib, usti parafin shimdirligida doka bilan yopiladi. Dokaning bir nechta joyini teshib, undirilgan urug'lar orasidan ildizi 1-2 sm chamasiga o'sgan urug'lar tanlab olinadi va shu teshiklarga momiq yordamida mahkamlab joylanadi. Ungan urug'lar doka ustida o'sa boshlaydi. Tajriba boshlangandan 2-3 kun o'tgach, idishdagi suv 5 marta suyultirilgan oziqali eritma bilan almashtiriladi. Tajribani kuzatishni davom ettirib, ikki pallali o'simliklar ikkita chin barg, bir pallali o'simliklar esa uchta chin barg chiqarguncha o'stiriladi.

O'simliklarni har xil eritmalarda o'stirish. a). Eritmalarning ph miqdorini aniqlash va idishlarni to'ldirish.

Tajriba uchun bir xil hajmdagi chinni stakanlar olinadi. Har biriga tajribanining variansi va guruhning nomeri yoziladi. Har bir eritmani idishga solishdan oldin ularning ph darajasi universal indikator yordamida aniqlanadi. Ko'pchilik o'simliklar ph ning optimal darajasi 6-7 ga teng bo'lganda yaxshi o'sadilar. Shuning uchun tajriba boshida hamma eritmalarda ph 6-7 teng bo'lishi kerak. Buning uchun 0,1 n HCl yoki NaOH ishlataladi. Eritmalarda ph bir xil ko'rsatgichga keltirilgandan so'ng hajmi bir xil bo'lgan idishlarga solinadi. Idishlardagi eritmalar ning miqdori yuqorisidan 0,5- 1 sm qolganga qadar to'lg'iziladi.

b) Idishlarga o'simliklarni o'tkazish.

Ekish uchun bir xil o'simlik maysalari olinadi. Ekishga qadar tayyor bo'lgan maysalar so'limasligi uchun, suvli stakanlarga o'tqazishdan oldin ularning ildiz va poya uzunligi o'lchanadi. Ularning o'rtacha kattaliklari bir xil bo'lishi kerak. So'ngra maysa ildizlari asta-sekinlik bilan parafinlangan idish qopqoqlaridagi teshiklarga o'tqaziladi va paxta yordamida berkitiladi. O'simliklar o'tqazilgan stakanlar yorug'lik yaxshi tushib turadigan issiq joyga qo'yiladi. Tajriba boshlangandan so'ng o'simliklar bukilib shikastlanmasligi uchun stakanlarning atrofiga tirkaklar bog'lab qo'yiladi.

v) O'simliklarni parvarish qilish.

O'simliklarning o'sishini hisobga olish va kuzatish har doim ma'lum bir vaqtida, ya'ni 5-7 kunlar oralig'ida olib boriladi. O'simliklarning balandligini o'lchash bilan birgalikda ularning tashqi o'zgarish holatlari ham kuzatib boriladi. Ishning natijalari 1-jadvalga yozib boriladi.

O'simliklarning ildiz sistemasini muntazam ravishda  $\text{O}_2$  bilan ta'minlash katta ahamiyatga ega. Buning uchun ichiga shisha naylar o'rnatilgan rezina pufaklari ishlataladi. Har 5-7 kunda stakanlarning ichidagi eritmalar almashtiriladi. Eritma almashtirilgandan so'ng uning miqdori o'lchanadi, sababi o'simliklar tomonidan o'zlashtirilgan eritmalarning miqdorini hisobga olishdir. Shu bilan birgalikda eritmalarning ph darajasi indikator qog'ozi yordamida ham aniqlab boriladi. Eritma qo'yilishidan avval idish yaxshilab chayqatiladi, sababi unga tuzlar cho'kkani bo'lishi mumkin.

**Tajribani yakunlash** Ushbu tajriba kamida 3-4 hafta davom etadi. Ana shu vaqtadan keyin tajribani yakunlash mumkin. Ishni yakunlash davomida stakanlardagi eritmaning o'simliklar tomonidan o'zlashtirilgan miqdori hisobga olinadi. Buning uchun birinchi va ikkinchi marta eritmalar almashtirilgan vaqtida variantlardagi har bir o'simliklarga sarf bo'lgan eritma miqdorining o'zgarishi ham hisobga olinishi kerak. Shu bilan birgalikda eritmaning ph miqdorining o'zgarishi ham hisobga olinishi kerak. So'ngra ildizning uzunligi va uning hajmi aniqlanadi. To'plangan ildizlarning hajmini aniqlash uchun ular suv solingan menzurkaga solinadi. Suvning necha millimetrik ko'tarilishiga qarab ildizning hajmi aniqlanib, har bir o'simlikning ildiz hajmi hisoblab topiladi. Shundan keyin filtr qog'ozi yordamida ildizdagi suv tomchilari shimdirliladi va uning ho'l og'irligi o'lchanadi. Ho'l og'irligi aniqlangandan so'ng qog'ozdan paketchalar yasab unga solinadi va  $105^{\circ}\text{C}$  haroratda maxsus quritgich shkaflarda quritiladi. So'ngra

o'simliklarning bo'yli, barglarning soni va uning sathi aniqlanadi. Shu bilan birgalikda o'simliklarning yer ustki ho'l og'irligi aniqlanib, ular ham paketchalarga solinib  $105^{\circ}\text{C}$  da quritiladi. Quritish og'irligida o'zgarish bo'limguncha davom ettiriladi. Olingan barcha natijalar quyidagi 2-jadvalga yozib boriladi.

Vazifa:

1. O'simlik maysalarini tayyorlash.
2. Idishlarni va turli eritmalarini tayyorlash.
3. Tajriba o'tkazish va o'simliklarni parvarish qilish.
4. Tajriba natijalarini yakunlash va xulosa.

### **15-laboratoriya ishi.O'simlik kulida uchraydigan elementlarni aniqlash.**

O'simliklar to'qimalari kuydirilganda kul hosil bo'ladi. Uning kimyoviy tarkibi ancha murakkab va turli tuman elementlardan iborat bo'lib, bu o'simliklar xususiyatiga hamda ular o'sgan tuproqning tarkibiga bog'liq bo'ladi. Umuman, kulning tarkibida Mendeleyev davriy sistemasidagi ko'pgina elementlarni kuzatish mumkin. Ammo ularning miqdori har xil. Kulning tarkibidagi elementlarning miqdorini aniqlash uchun har bir tuz hosil qildigan o'ziga xos xarakterli kristallar tuzilishiga qarab mikrokimyoviy tahlil qilish mumkin. Bu usul ancha yengil, qulay bo'lib, ko'p ish va material talab qilmaydi.


**Mashg'ulotning maqsadi.** Turli xil o'simliklar kuli tarkibidagi kimyoviy elementlarni aniqlash uchun o'tkaziladigan mikrokimyoviy reaktsiyalarini o'tkazish usullari bilan tanishish.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Kul, distillangan suv, stakanlar, ammiak, 10% HCl, 1%  $\text{H}_2\text{SO}_4$ , 1%-li  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$ , 1%-li  $(\text{NH}_4)_2\text{MoO}_4$ , Cr(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, sariq qon tuzi eritmasi, shisha tayyoqcha, igna, filtr qog'oz, buyum oynasi, probirkalar, kichik dahanak, mikroskop, havonchalar, o'lchovli probirkalar.

**Ishni bajarish tartibi.** Tajriba uchun o'simliklarning kuli ishlataladi. Probirkaga tekshirilayotgan o'simlik kulidan ozroq solib, ustiga 2 ml 10% HCl kislotasi qo'yiladi. Reaktsiya tugagandan so'ng probirkadagi aralashma filtrlanadi. Shu, filtratdan o'tgan eritmada kaliy, kalsiy, magniy, fosfor, oltingugurt va temir kabi elementlar borligi buyum oynasi ustida o'tadigan turli reaktsiyalar yordamida aniqlanadi.

Buning uchun buyum oynasining o'rta qismiga bir tomchi filtrat tomiziladi va uning yoniga elementini aniqlash uchun qo'llaniladigan reaktivdan bir tomchi tomiziladi (ikkala tomchi bir-biridan –2 sm oraliqda bo'lishi kerak). Oyna ustidagi bu ikki xil tomchilar igna yordamida bir-biriga yoy shaklida qo'shiladi. Buyum oynasi ustidagi tomchilarning shu qo'shilgan joyi qurigandan keyin mikroskop ostida ko'rildi. Bunda har qaysi reaktsiyaning o'tishida elementlarning o'ziga xos tuzilgan kristallari hosil bo'lganligi kuzatiladi (13-rasm).

Kalsiyini aniqlash uchun filtratdan o'tgan eritmaga bir tomchi 1% sulfat kislotasi tomiziladi. Reaktsiya natijasida gipsning ninasimon va boshqa shakllardagi kristallari hosil bo'ladi. Bu kul tarkibida kalsiy borligini ko'rsatadi. Reaktsiya quyidagicha boradi:




### **15-rasm. O'simlik kulini mikrokimyoviy analiz qiladigan qurilma**

- 1-Talliy xlorid TaCl;
- 2- qo'rg'oshim misli kaliy nitrat  $\text{K}_2\text{PbCu}(\text{NO}_3)_5$ ;
- 3- ammoniy magniy fosfat  $\text{NH}_4\text{MgPO}_4$ - kaliy xlorplatinat  $\text{K}_2\text{PtCl}_6$ ;
- 5- kalsiy sulfat  $\text{CaSO}_4$ ; 6 – ammoniy fosfat molibdat.




Magniyni aniqlash uchun filtraatdan o'tgan eritmadan bir tomchi olib, buyum oynasi ustiga tomizilib, ammiak bilan neytrallanadi. So'ngra bu tomchiga natriy gidrofosfatning 1% eritmasidan bir tomchi olib, bir-biri bilan qo'shilsa, yulduzsimon va patsimon kristallar hosil bo'ladi. Bu kul tarkibida magniy elementi borligini ko'rsatadi. Reaksiya quyidagicha boradi:



Fosforni aniqlash uchun filtratdan o'tgan eritma ammoniy molibdatning nitrat kislotada tayyorlangan 1% eritmasidan bir tomchi tomizilsa, yashil rangli dumaloq, to'rt va uch qirrali kristallar hosil bo'ladi. Bu kul tarkibida fosfor borligini ko'rsatadi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



Oltingugurtni aniqlash uchun filtratdan o'tgan eritmaga 1% nitrat kislotaning stronsiy nitrat tuzi qo'shilganda mayda sariq rangli dumaloq kristallar hosil bo'ladi. Bu oltingugurt borligini ko'rsatadi. Reaksiya quyidagicha boradi:



Temirni aniqlash uchun rangli reaksiyadan foydalaniadi. Reaksiya toza oyna ustida olib boriladi. Buning uchun filtratdan o'tgan kul eritmasiga 1% li sariq qon tuzi eritmasi qo'shilsa, ko'k rang (berlin lazuri) hosil bo'ladi. Reaksiya quyidagicha boradi:



### Vazifa:

- O'simlik kulidan tayyorlangan eritmadan foydalanib, elementlarga xos bo'lgan reaksiyalarni o'tkazish va ularni aniqlash.
- Har bir elementga xos bo'lgan kristallarning shaklini chizish va xulosa.

## 16-laboratoriya ishi.Tuproqning to'la nam sig'imini aniqlash.

Tuproqning ekologik omil sifatida o'simliklarga ta'siri haqida shuni aytish kerakki, tuproq o'simlikni o'zida tutib turadi va uni ozuqa bilan ta'minlaydi. O'simlik tuproqdan suv va unda erigan mineral va organik moddalarni oladi.

**Mashg'ulotning maqsadi.** O'simliklarning sub bilan qanchalik ta'minlanganligini bilish uchun tuproq namligini o'rganish muhum ahamiyatga ega.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** 1.Tuproq, 2.Byukslar, 3.Quritgich shkaf, 5.Eksikator, 6.Tarozi.

**Ishni bajarish tartibi.** Analitik tarozida uchta byuksning vazni aniqlanadi. So'ngra ularga oldindan tayyorlab qo'yilgan tuproq to'ldirilib, ularning tuproq bilan birligida vazni aniqlanadi. Tuproqni yaxshi quritish uchun byukslar quritkich shkafga qo'yilib, 105°C issiqlikda 6 soat saqlanadi. So'ngra byukslar shkafdan olinib eksikatorda sovitiladi. Sovigan byukslar qayta tortilib, yana 2 soat davomida quritgich shkafga qo'yiladi. Ularning vazni doimiyya kelguncha davom ettiriladi. Tajriba natijalari 1-jadvalga yozib boriladi:

### Tuproqning namligini aniqlash

Tuproqning turi	Byukslar nomeri	Bo'sh byuksning vazni	Tuproq solingan byuksning vazni (g)	Tuproqning vazni (g)	Byuks va tuproqning qurigandan keyingi vazni (g)		Tuproqning yo'qotgan vazni (suv miqdori, g)
					1-o'lchashda	2-o'lchashda	

Bo'z tuproq va hokazo	1	11,65	23,225	7,915	21,390	21,385	1,840
-----------------------	---	-------	--------	-------	--------	--------	-------

Bu ma'lumotlardan tuproqning sof vazni quritishdan oldin 7,915 g, quritilganda yo'qotgan vazni 1,840 g ekanligini ko'ramiz. So'ngra tuproq nami foiz hisobida quyidagicha aniqlanadi:

$$11,65 \text{ ----- } 100 \text{ yoki } X = \frac{100 \times 1,80}{11,65} = 15,4\%$$

$$1,80 \text{ ----- } X$$

### ***Valeriana officinalis L. tajriba maydonida tuproq namligining o'zgarishlari***


Yillar	Tuproq qatlamlari	Oylar					
		aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr
1	0-10	15,2	12,7	10,2	9,2	10,6	12,5
	10-20	15,7	15,5	11,9	9,8	11,8	13,0
	20-30	16,5	17,1	13,2	12,2	13,5	17,7
	30-40	17,3	18,3	12,0	10,2	13,0	17,2
	40-50	17,6	17,4	12,7	13,4	13,1	16,2
	O'rtacha	16,4	16,2	12,0	12,6	12,4	15,4
2	0-10	17,6	20,2	10,2	13,9	12,9	14,5
	10-20	16,4	18,7	12,4	14,9	11,7	15,3
	20-30	17,0	17,0	14,2	14,2	13,5	11,0
	30-40	15,9	17,0	14,0	13,4	15,3	16,6
	40-50	15,7	19,1	14,5	13,1	18,2	19,2
	O'rtacha	16,5	18,4	13,0	13,9	14,3	15,3
3	0-10	8,0	7,4	9,0	7,0	7,7	10,0
	10-20	13,2	11,6	9,3	10,2	8,9	10,4
	20-30	17,0	16,0	9,9	11,7	9,8	12,3
	30-40	17,6	16,4	14,0	12,8	12,2	13,1
	40-50	18,0	15,6	13,2	13,1	13,6	13,6
	O'rtacha	14,7	13,4	11,0	10,9	10,4	11,9

### **Vazifa:**


1. Har xil tuproqlardan namunalar olib kelish.
2. Tuproq, byukslar, quritgich shkaf, eksikator, tarozilarini tayyorlash.
3. Tajriba natijalarini yakunlash va xulosa.

### **FOTOSINTEZ.**

Yashil o'simliklarning quyosh energiyasi ta'sirida anorganik moddalardan (suv va karbonat angidriddan) organik moddalar va molekulyar kislород hosil qilish jarayoni **fotosintez** deyiladi. Fotosintez jarayoni quyidagi tenglama asosida bo'lib o'tadi:



Bu tenglamani quyidagicha ham yozish mumkin:  
yorug'lik



Fotosintez jarayonida ishtirok etuvchi asosiy pigmentlar:

Xlorofillar: a – C<sub>55</sub>H<sub>72</sub>O<sub>5</sub>N<sub>4</sub>Mg; b- C<sub>55</sub>H<sub>70</sub>O<sub>6</sub>N<sub>4</sub>Mg

Karotinoidlar: Karotin – C<sub>40</sub>H<sub>56</sub>; Lyuteyin - C<sub>40</sub>H<sub>56</sub>O<sub>2</sub>; Violaksantin- C<sub>40</sub>H<sub>56</sub>O<sub>4</sub>

Fikobilinlar: Fikoeritrin – C<sub>34</sub>H<sub>47</sub>N<sub>4</sub>O<sub>8</sub>; Fikosianin- C<sub>34</sub>H<sub>42</sub>N<sub>4</sub>O<sub>9</sub>

Yashil o'simliklarda sodir bo'ladigan fotosintez jarayonida ishtirok etuvchi pigmentlarning xususiyatlari bilan quyidagi mashg'ulotlarda tanishib chiqiladi.

## 17 -laboratoriya ishi.Yashil barg pigmentlari va ularning xususiyatlarini o'rganish.Barg pigmentlarini qog'oz xromotografiya usulida aniqlash.

**Mashg'ulotning maqsadi.** Yashil o'simliklardagi fotosintez jarayonida qatnashuvchi pigmentlarning spirtdagi yoki benzoldagi eritmasini olish usullari va ularning ba'zi bir kimyoviy hamda optikaviy xususiyatlari bilan talabalarni tanishtirish.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Biror o'simlikning quruq yoki ho'l barglari, etil spirti, benzin, kristall holdagi ishqor, HCl kislotasi, CaCO<sub>3</sub>, sirkal kislotaning mis tuzi yoki sirkal kislotaning rux tuzi kristallari, kvarts qumi, chinni havoncha, filtr qog'ozi, voronka, shisha tayoqcha, qaychi, spirt lampa, vazelin, spektroskop, shativ va probirkalar, pipetka, rangli qalam.

**Ishni bajarish tartibi.** Eritmasini tayyorlash uchun o'simlikning quruq yoki ho'l bargi olinadi. Agar quruq barg bo'lsa, u ezilib kolbadagi spirtga solib qo'yiladi. Bu pigmentlar ajralib chiqishini tezlashtiradi. So'ngra pigmentlarning spirtdagi to'q yashil eritmasi filtrlab olinadi.

Ho'l o'simlik bargidan pigmentlarni ajratib olish uchun 4-5 g barg qaychida mayda qirqiladi (bunda yirik tomirlari va barg bandi olib tashlanadi). So'ngra chinni havonchaga solib, barg yaxshi ezilishi uchun kvarts qumi va hujayra shirasining kislotasini neytrallash uchun ozgina CaCO<sub>3</sub> qo'shib eziladi. Bargni ezish davomida oz-ozdan etil spirti qo'yib turiladi. So'ngra bu ezilgan massa probirkalarga (filtr qog'ozi orqali) filtrlab olinadi. Chinni havonchadan eritma oqib ketmasligi uchun havonchaning chetlariga vazelin surkab qo'yish kerak.Olingan yashil filtratda xlorofill «a», xlorofill «b», karotin, ksantofil pigmentlari bo'ladi. Filtrat to'rtta probirkaga bo'lib solinadi va quyidagi ishlar bajariladi:

### Pigmentlarni ajratish


a) **Kraus usuli.** Pigmentlarni ajratishda ularning spirt va benzinda turlicha erish xossasidan foydalananiladi. Buning uchun bitta probirkaga pigmentlarning spirtdagi eritmasidan 4 ml olib, uning ustiga (o'zidan ko'proq miqdorda) 6 ml benzin qu'yiladi. Probirkaning og'zi probka yoki bosh barmoq bilan berkitilib, yaxshilab chayqatiladi va tinish uchun bir necha daqiqa shtativga qo'yib kuzatiladi. Bir necha daqiqadan so'ng probirkaning yuqorigi benzin qavatida yashil rangli xlorofill «a» va «b» hamda pastki spirtli qavatida sarg'ish rangli ksantofil pigmenti ajralib chiqadi. Agar pigmentlarning ajralishi yaxshi bo'lmasa, u holda yana 3-4 tomchi suv tomizilib qaytadan aralashtiradi. Agar suv ko'proq qo'shilib ketsa, pastki qavat loyqalanib qoladi. Bu holni spirt qo'shish yo'li bilan yaxshilash mumkin.

b) **Filtr qog'ozi yordamida (xromatogramma usulida) pigmentlarni ajratish.** Rus fitofiziologi M.S.Svet tomonidan ishlab chiqilgan bu usul pigmentlarni xromatogramma usulida ajratish, pigmentlar aralashmasini adsorbentga, ya'ni so'ruvchi-shimuvchi qog'ozga o'tkazishga asoslangandir. Har xil pigmentlarning bir xil erituvchida erish darajasi har xil bo'ladi va ularning bir xil adsorbentda shimalishi ham har xildir. Erituvchidagi pigmentlarning adsorbent yuzasida so'rilib darajasiga qarab, ular har xil joyda so'rilib qoladi. Erituvchida pigmentlarning erish xususiyati qancha yuqori bo'lsa, u shu adsorbent tomonidan shuncha sekin so'rildi. Bunda pigmentning harakati tez bo'lib, uning adsorbent yuzasida joylashishi yuqoriroq bo'ladi. Buning uchun uzunligi 20 sm, eni 1 sm li filtr qog'ozi qirqib olinib, uning bir uchi pigmentlarning spirtli eritmasiga botirilib

qo'yiladi. Suzma filtr qog'ozni bo'ylab yuqoriga qarab ko'tarila boshlaydi. Yashil pigmentlar kuchliroq so'rildi. Shuning uchun filtr qog'ozida dastlab yashil qatlam – xlorofill «a» va «b», ularning yuqorisida sariq pigmentlar – karotin va ksantofill dog'lari paydo bo'ladi. Eng yuqori qatlam esa rangsiz bo'ladi. Shu rangli qatlamlarning rasmi chizib olinadi (rangli qalam bilan).

### Pigmentlarning kimyoviy xossalari

**a) Xlorofillningsovunlanishi.** Xlorofill tarkibidagi organik moddalarning ishqor ta'sirida parchalanishi sovunlanish deyiladi. O'zining kimyoviy tuzilishiga ko'ra, xlorofill murakkab efirlarga kiradi. Uni ishqor yordamida sovunlash mumkin. Buning uchun pigmentlarning spirtdagi eritmasi solingan probirkaga o'zidan biroz ko'proq miqdorda benzin qo'shib chayqatilsa, pigmentlar bir-biridan ajraladi (Kraus usuli). So'ngra probirkadagi eritma ustiga ikki-uchta ishqor kristalli donachasidan solinadi va chayqatiladi. Bir necha daqiqa tinch qoldirilsa, probirkadagi eritmaning yuqori benzin qavatida sariq rangli karotin pigmenti, pastki spirit qavatida esa yashil rangli xlorofill pigmenti to'planadi. Ksantofill pigmenti xlorofill bilan birgalikda eritmaning pastki qavatida qoladi. Xlorofill eritmaning pastidagi spirit qavatiga o'tib qolishini quyidagicha tushuntirish kerak. Xlorofill xlorofillin dikarbon kislotasi bilan metil va fitol spiritlarining birikmasidan hosil bo'lgan. Shuning uchun xlorofill murakkab efirlar gruppasi kiradi. Xlorofillga ishqor ta'sir etganda, u sovunlanish reaksiyasiga kirishib, dikarbon kislotasi tuzlariga, erkin metil va fitol spiritlariga parchalanib ketadi:




Xlorofillin kislotasining natriy tuzi xlorofill sovunlanish reaksiyasida o'z rangini saqlab qoladi, ammo benzinda bu xususiyatni yo'qotadi. Probirkadagi eritmalar qavatining rasmini chizib, spiritda qaysi modda va benzinda qaysi modda eriganligi yozib qo'yiladi.


### b) Xlorofillga kislotaning ta'siri.

**Feofitin olish.** Xlorofill tuzilishiga ko'ra metallo – organik birikma, chunki uning molekulasi markazida magniy metalli bor. Xlorofillga yashil rang berib turish, asosan uning molekulasidagi markaziy o'rinni egallab turgan ikki valentli metall-magniyning xususiyatidir. Buni feofitinning hosil bo'lishi va vodorod atomining metall bilan o'rinni almashishidan bilib olamiz. Buning uchun toza probirkaga pigmentlarning spiritli eritmasidan 4-5 ml solib, uning ustiga 2-3 tomchi kontsentratsiyali xlorid kislotasi tomiziladi. Shu payt xlorofillning yashil rangi o'miga qo'ng'ir rang hosil bo'ladi. Reaksiya vaqtida xlorofill molekulasi tarkibidagi magniy metalli vodorod bilan o'rinni almashadi va feofitin hosil bo'ladi. Bu reaksiya tenglasi quyidagicha bo'ladi (tenglamaga qarang):





Agar shu qo'ng'ir rangli eritma sirka kislotasining mis yoki ruxli  $Zn(CH_3COO)_2$  tuzi kristallaridan qo'shib, asta-sekin spirit lampasida qizdirilsa, qo'ng'ir rangli eritma qaytadan yashil rangga kiradi. Bu reaksiya quyidagicha o'tadi:




Tajriba shuni ko'rsatadiki, xlorofill rangining yashilligi uning molekulasida metall borligidan dalolat beradi. Bu reaksiyada xlorofill molekulasi metallo-organik birikma ekanligi isbotlandi. Bunda sirkal kislota katalizatorlik vazifasini bajaradi.

## Pigmentlarning optikaviy xususiyatlari

Xlorofill o'zi yutgan nurlari qaytarish, ya'ni fluoressensiya xususiyatiga ega. Bu esa xlorofill molekulasining qo'zg'algan holatdan qayta tinchlik holatiga o'tishi bilan bog'liqdir. Fluoressensiya xlorofillda fotokimyoviy aktivlik borligini ko'rsatadi. Xlorofillning bu xususitini biz uning spirtdagi eritmasidan yorug'lik nurlarini o'tkazib spektroskop orqali kuzatib aniqlashimiz mumkin (14-rasm).

## 16-rasm. Spektroskop.

- a) Xlorofillning fluoressensiysi; a) spektroskop;
  - b) pigment qo'yilgan probirka.



Spektroskopda xlorofill yutgan spektr nurlari o'rni qoramtilib bo'lib ko'rindi. Xuddi shu yo'l bilan boshqa pigmentlarning ham spektr nurlarini yutish xususiyatini ko'rish mumkin.

Kuyida ko'rib chiqiladigan ishlarda xlorofillning fluoressensiya xususiyatini va xlorofil, karotin, ksantofil pigmentlarining yorug'lik spektr nurlarini tanlab yutish xususiyatlari bilan tanishiladi.

Xlorofillning fluoressensiya xususiyati bilan tanishish uchun probirkadagi pigmentlarning spirtdagi eritmasidan yorug'lik o'tkazib, eritmaning yashil rangini kuzatamiz. So'ngra pigmentli probirkani aks etgan yorug'likda ko'ramiz, bunda xlorofill qizil rangda ko'rindi. Chunki yorug'lik spektridan xlorofill molekulasi asosan qizil nurlarni yutadi. Bu ko'rinish fluoressensiya deyiladi va xlorofillning yuksak fotokimyoviy aktivligini ko'rsatadi.

b) Pigmentlarning spektr nurlarini tanlab yutishi

Pigmentlarning bu xususiyatini o'rganish uchun spektroskop avval shtativga mahkamlanib, quyosh nuriga yoki stol lampasining nuriga qaratilib qo'yiladi. Spektroskopdagi ko'zga ko'rindigan yetti xil nur aniq ko'rinsama, spektroskopning tirkishini katta yoki kichik qilish yo'li bilan to'g'rlanadi. So'ngra Kraus usulida ajratilgan probirkadagi pigmentlar eritmasi spektroskop oldiga qo'yiladi. Oldin benzin qavatidagi xlorofill pigmentlarining yutgan nuri, so'ngra spirt qavatidagi ksantofillarning yutgan nuri kuzatiladi. Karotin pigmentining yutgan nurini aniqlash uchun sabzidan olingan eritmada foydalilanadi yoki sovunlanish reaksiyasi o'tkazilgan probirkadagi eritma ishlatiladi.

Umuman, xlorofill spektroskopda ko'rindigan qizil, sariq pigmentlar (ksantofill) va karotin ko'k-binafsha nurlarni yutganligi ko'rindi. Olingan natijalar quyidagi 18-jadvalga yoziladi.

#### Vazifa:

1. Pigmentlarning spirtdagi eritmasini tayyorlash.
2. Pigmentlarni ajratish.
3. Pigmentlarning kimyoviy va optikaviy xususiyatlarini kuzatish.
4. Jadvalni to'ldirish va xulosa.

### **18-laboratoriya ishi.Fotosintez intensivligiga tashqi muhit omillarining ta'sirini aniqlash.**

Ko'pchilik hollarda fotosintez jadalligi havo oqimida CO<sub>2</sub> ning o'simlik tomonidan yutilish miqdoriga qarab aniqlanadi. Buning uchun maxsus qurilmadan foydalilanadi (6 rasm).

**Mashg'ulotning maqsadi.** Turli xil o'simliklarda fotosintez jadalligini yutilgan karbonat angidrid miqdorini hisobga olish usuli bilan aniqlash va tajriba asosida olingan ma'lumotlarga qarab xulosa chiqarish.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** 0,1 normal NaOH eritmasi, 0,1 n HCl, fenolftaleinning spirtdagi eritmasi, izobutil spirti, tuvakda o'sayotgan o'simlik rezina naylari, qisqichlar, shisha naylar yoki 100 ml li silindr, Chesnokov yoki Rixter yutgichi, aspirator, barg kamerasi, byuretkalar, stakanlar, stakanchalar, oynaga yozadigan qalam, qaychi, qog'oz, tarozi va toshlar.


**Ishni bajarish tartibi:** Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan hamma asbob va reaktivlar tayyorlangandan so'ng fotosintez jadalligini aniqlaydigan qurilma rasmida ko'rsatilganidek tartib bilan o'rnatiladi hamda rezina naylar bilan ulanadi (15-rasm).

Avval o'simlik bilan tajriba o'tkaziladi. Keyin esa o'simiksiz (nazorat) tajriba o'tkaziladi. Buning uchun yutgichga 100 ml 0,1 n NaOH eritmasi solinadi. Bunda ishqorning havo bilan ta'sirlashuviga yo'l qo'ymaslik kerak. Bu holning oldini olish uchun yutgich og'ziga bir varaq qog'oz qo'yib, qog'ozni teshib unga maxsus sistemadagi byuretka orqali ishqor quyiladi. So'ngra yutgichdagi ishqor ustiga ko'pik hosil qilish maqsadida 2-3 tomchi izobutil spirti tomiziladi. Yutgich rezina probka va nay orqali aspiratorga ulanadi.

Aspiratordan suvning oqib chiqish tezligi qisqich yordamida bir me'yorga keltiriladi.

### **17-rasm. Fotosintez jadalligini aniqlaydigan qurilma**

O'simlik bilan o'tkazilgan tajribada, avvalo shtativga o'rnatilgan barg kamerasi ichiga tuvakdag'i o'simlikning bargidan 1-2 tasi joylashtirilib, rasmdagidek qurilmalar bir-biriga ulanadi, so'ng barg kamerasi sun'iy yoki quyosh yorug'ligiga qo'yiladi. Vaqt ni belgilab qurilma ishga tushiriladi. Buning uchun qisqichlar navbat



bilan ochiladi: 1) aspiratordan tashqariga suv chiqadigan naydagi qisqich; 2) aspirator va yutgich orasidagi nayning qisqichi; 3) barg kamerasi bilan yutgich o'rtasidagi qisqich. Tajriba 30 daqiqa davom etadi. Tajriba vaqt tugagandan so'ng qurilmaning ishi to'xtatiladi (qisqichlar teskari tartibda yopiladi). Shundan so'ng ishqorni titrlashga kirishiladi. Hamma ishqorni birdaniga titrlash ham mumkin yoki 20 ml dan olib titrlasa ham bo'ladi. Titrlashdan oldin ishqor ustiga 1-2 tomchi fenolftalein tomiziladi va 0,1 n HCl bilan titrlanadi. Shunday tajriba o'simiksiz ham takrorlanadi.

Fotosinez jadalligini quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$F = \frac{(a - b)K \cdot 2,13 \cdot 60}{s \cdot t}$$

Bunda F – fotosintez jadalligi, ya'ni 1 soatda 1 dm<sup>2</sup> barg yuzasida o'simlik tomonidan yutilgan CO<sub>2</sub> mg hisobida;

a – tajriba variantidagi ishqorni titrlash uchun sarf bo'lган kislota miqdori (ml).

b – nazorat (o'simiksiz) variantdagi ishqorni titrlash uchun sarflangan kislota miqdori (ml).

K – titr to'g'rilaqich (koeffisiyent) (10 ml ) NaOH ni titrlash uchun sarflangan 0,1 n HCl ning nisbati  $\frac{HCl}{NaOH}$

2,13 – 1 mg CO<sub>2</sub>ning 1 ml 0,1 n HCl teng bo'lган ekvivalenti;

S- barg yuzasi, sm<sup>2</sup> hisobida;

t – tajriba davom etgan vaqt (min);

60 – minutni soatga aylantirish koeffitsiyenti;

100 – sm<sup>2</sup> ni dm<sup>2</sup> ga o'tkazish koeffitsiyenti.

### Vazifa:

1. Fotosintez jadalligini aniqlash uchun qurilma tuzish.
2. Turli o'simlik barglarida CO<sub>2</sub>ning yutilish tezligini aniqlash.
3. Fotosintezda ishtirok etgan barg sathini aniqlash.
4. Olingan natijalar asosida formula bo'yicha fotosintez jadalligini hisoblab chiqish va xulosa.


### **19-laboratoriya ishi.Yashil o'simliklarda yorug'lik ta'sirida kraxmal hosil bo'lishini aniqlash**

Fotosintez jarayonining mahsulotlaridan biri kraxmal hisoblanadi. Uning hosil bo'lishi uchun yorug'likning bo'lishi juda muhimdir. Buni biz nemis olimi Yu.Saks ishlab chiqqan usul bilan aniqlaymiz. Agar o'simlik 2-3 kun qorong'i joyda saqlansa, unda o'simlik bargidagi kraxmal parchalanib, oddiy qandga aylanadi. Bu moddalar o'simlikning nafas olishi vaqtida ko'pgina fiziologik jarayonlarning o'tishida sarf bo'ladi. Qorong'i joyda saqlangan o'simlik bargida kraxmal parchalanib, shakarga aylanganligini oldindan aniqlab olish mumkin. Buning uchun qorong'ida saqlangan o'simlik bargi uzib olinib, qaynaq suvga botiriladi va so'ng spirtda qaynatilib rangsizlantiriladi. Oqarib qolgan bargga suyultirilgan eritma tomizilganda yod quyulsa bargning yuzi qizarib qolsa, kraxmalning parchalanib shakarga aylanganligini bildiradi. Shundan keyin yorug'likda kraxmal hosil bo'lishini aniqlash uchun quyidagi tajriba o'tkaziladi.

**Mashg'ulotning maqsadi.** Yashil o'simliklarda fotosintez mahsuloti-kraxmal hosil bo'lishi uchun yorug'likning qanchalik darajada muhim rol uynashini tajribada kuzatish.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Bir necha sutka qorong'ida saqlangan bargli xona o'simligi (geran yoki boshqa o'simlik), spirt, yod eritmasi, 10% li HCl, spirt lampasi, oq chinni kritallizator, suv hammomi, shisha qalpoq, qaychi, pinset, marmar donalari, qora qog'oz, sim qistirgich, gugurt.

**Ishni bajarish tartibi.** Tuvakdagi o'simlik suvgaga to'yg'azilib qorong'i joyga 2-3 kun qo'yilgandan so'ng shu o'simlik bargi bandi bilan birga uzib olinadi. Barg yaprog'ini biror shakl yasalgan qora qog'oz bilan yopib, simqistirgich bilan mahkamlanadi va suvli stakanga solinib, usti shisha qalpoq bilan yopiladi. So'ngra u kuchli yorug'lik tushadigan joyga qo'yiladi (16-rasm).



Fotosintez jarayoni yaxshi o'tishi uchun bargni ko'proq miqdorda karbonat angidrib bilan ta'minlash zarur. Buning uchun marmar yoki oq bo'r solingan piyolachaga HCl yoki  $H_2SO_4$  kislota solinib shisha qalpoq ichiga qo'yiladi. Oradan 1-2 soat o'tgandan so'ng barg shisha qalpoq ichidan olinib, uning ustiga kiygizilgan qog'oz olib tashlanadi va barg tezda qaynab turgan suvgaga solinadi. Keyin spirtda qaynatilib rangsizlantiriladi. So'ngra ularni chinni likopchaga solib, ustiga suyultirilgan yod eritmasi qo'yiladi. Agar yorug'lik ta'sirida kraxmal hosil bo'lsa, u holda ko'k rangga bo'yaladi. Qorong'i qilingan joylarda esa qizil rangga kiradi, chunki bu joylarda karmal parchalanib shakarga aylangan.

O'simlik bargiga tushirilgan shakllarni ko'rgazma uchun saqlab qo'yish ham mumkin. Ularni spirt solingan bankaga ozroq yod qo'shib oynaga yopishtirilgan holda saqlanadi.

#### Vazifa:

1. O'simliklarni tuvagi bilan 2-3 sutka oldin suvgaga to'yg'azib qorong'i joyga qo'yish.
2. Spirt va suyultirilgan yod eritmalarini tayyorlash.
3. Qora qog'ozdan turli shakllar kesib, o'simlik barglariga kiygizish.
4. Tajribani o'tkazish va xulosa.

### O'SIMLIKLARNING NAFAS OLISHI

Nafas olish tirik organizmlarda (jumladan o'simliklarda ham) organik moddalarning kislород yordamida oksidlanishi va ulardan hayot faoliyatiga zarur energiyaning ajralib chiqishini ta'minlaydigan jarayonlar yig'indisidir. Bu jarayonni quyidagi umumiy tenglama bilan ifodalash mumkin:



Tenglamadan ko'rinish turibdiki, nafas olish to'g'ridan-to'g'ri gazlar almashinishi emas, energiya hosil qilishidan iborat. Energiya hosil qilish esa organik moddalarning oksidlanib parchalanishiga bog'liq. Bu jarayon kimyoviy jihatdan juda murakkab: unda ko'pgina organik moddalar (uglevodlar, yog'lar, oqsillar) ishtirot etadi. Ularning nafas olish sikli jarayonlarida ko'pgina oraliq va qo'shimcha mahsulotlar ham hosil bo'ladi. Bu mahsulotlarning bir qismi to'la oksidlanib  $CO_2$  va  $H_2O$  ni hosil qiladi, ikkinchi qismidan ko'pgina sintez uchun boshlang'ich modda sifatida foydalaniladi.

O'simliklarning hamma organlari, to'qimalari va hujayralari nafas oladi. Nafas olish tezligini to'qima ajratayotgan  $CO_2$  yoki u o'zlashtirayotgan  $O_2$  miqdorini o'lchab aniqlash mumkin.

### 20-laboratoriya ishi. Unayotgan urug'larga kislород yutilishini aniqlash.

Nafas olish jadalligini aniq miqdordagi urug'larning ma'lum vaqtida qabul qilgan kislород miqdoriga qarab aniqlash mumkin. Buning uchun maxsus qurilmani (18-rasm) laboratoriya tayyorlash mumkin. Tekshiriladigan urug' bilan 0,1 n NaOH ishqor eritmasi Bunzen kolbasiga joylashtiriladi. Ishqor urug'ning nafas olish jarayonida ajralib chiqqan

karbonat angidridini yutib kolba ichidagi havoning kamayishiga sabab bo'ladi. Kamaygan havo o'rniga shisha naydagi eritma yuqoriga ko'tarila boshlaydi. Shisha nay bo'y lab eritmaning yuqoriga qancha tezlik bilan ko'tarilishiga qarab urug' tomonidan qabul qilingan kislorod miqdorini aniqlash mumkin.

**Mashg'ulotning maqsadi.** Unayotgan urug'larning nafas olish jadalligini qabul qilingan kislorod miqdoriga qarab aniqlash.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Har xil urug'lar, Bunzen kolbasi, bir normal NaOH yoki KON eritmasi, bo'yoq kristallari, shisha naylar, rezina ichagi, stakan, doka xaltacha, tarozi, pinset, qora qog'oz yoki qora xalta.

**Ishni bajarish tartibi.** Unayotgan urug'larning yoki yashil o'simliklarning kislorod qabul qilish jadalligini aniqlash uchun Bunzen kolbasiga 100 ml kontsentratsiyasi bir normal NaOH yoki KON eritmasi quyiladi. Kolbaning og'zi ilmoqli tiqin bilan berkitilib, uning ilmog'iga 10-15 g nishlangan urug' solingen xaltacha osiladi (xaltacha dokadan tayyorlanadi). Shu holatda tayyorlangan tajriba kolbasi rasmida ko'rsatilganidek shtativga o'rnatiladi. Kolbaning jumragi rezina ichagi yordamida shisha nay bilan tutashtiriladi. Shisha nayning pastki uchi esa rangli suv qo'yilgan stakanga botirilib qo'yiladi. Oradan bir necha minut o'tgandan so'ng stakandagi rangli eritma yuqoriga ko'tarila boshlaydi, urug'ning nafas olishi qancha kuchli bo'lsa, rangli eritmaning ko'tilishi ham shuncha tezlashadi. Chunki unayotgan urug'lar kolbadagi havo tarkibidagi kislorodni qabul qiladi va buning o'rniga CO<sub>2</sub>ni ajratib chiqaradi. Ajralib chiqqan CO<sub>2</sub> ni esa kolbadagi ishqor yutadi. Natijada kolbadagi havo siyraklasha boshlaydi. Havoning siyraklashish tezligi nafas olish jadalligiga bog'liq bo'ladi.

Rangli eritmaning shisha nay bo'y lab ko'tarilish tezligini hisobga olish mumkin. Buning uchun bir soat mobaynida ko'tarilgan rangli eritma hajmini ( $\text{sm}^3$ ) hisobga olib, buning asosida 1 g yoki 100 g urug'ning bir soat mobaynida ko'tarilishi mumkin bo'lган rangli eritma darajasini aniqlash mumkin va chiqqan sonni shu urug'lar qabul qilgan kislorodning taxminiy miqdori deb qabul qilish mumkin.

O'simlikning bargi yoki boshqa qismlarining nafas olish jadalligini ham yuqorida bayon qiligan usul bilan aniqlash mumkin. Buning uchun tajribadagi kolbaning ustiga qora xaltacha kiydirib qo'yiladi, ko'tarilgan sathi aniqlanadi, ma'lum vaqtidan keyin esa natija hisoblanadi. Nafas olish jarayonini aniqlashda olingan hamma ma'lumotlar quyidagi jadvalga yoziladi va xulosa chiqariladi.

## 20-jadval

### Unayotgan urug'larning kislorod o'zlashtirishi

Tekshiri-ladigan urug' nomlari	Tekshiri-ladigan urug'ni miqdori	Tajriba vaqtி			Trubkadagi rangli suvning sathi			Nafas olish jadalligi
		Boshla-Nishi	Oxiri	Da-vom etish (min)	Boshla-nish holi	Oxi ri hola ti	Farqi (ml)	

### Vazifa:

1. Unayotgan urug'larni ishqor solingen Bunzen kolbasiga joylashtirish.

2. Kolbani shisha nay va uni rangli eritma bilan tutashtirish.
3. Rangli eritmaning ko'tarilish tezligiga qarab, nafas olish jarayonini kuzatish.
4. Tajribani har xil o'simlik urug'lari va yashil barglari bilan o'tkazish hamda xulosalar qilish.

## 21-laboratoriya ishi. Nafas olish jarayonida sarflanadigan organik moddalar miqdorini aniqlash

Barcha tirik organizmlar, jumladan, o'simliklar ham nafas olish jarayonida organik moddalarni sarflaydi. Sarflanadigan organik moddalar miqdori esa nafas olish jadalligiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, nafas olish jadalligi yuqori bo'lgan o'simlik to'qimalarda organik moddalar ko'proq sarflansa, nafas olish jadalligi past bo'lgan to'qimalarda, aksincha organik moddalar kam sarflanadi. Shuning uchun ham sarflanayotgan organik moddalar miqdorini aniqlash orqali nafas olish jadalligi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

**Mashg'ulotning maqsadi.** Unayotgan urug'larda nafas olish jadalligini organik moddalar miqdorining o'zgarishini hisobga olish orqali aniqlash.

**Kerakli asbob va reaktivlar:** chigit, mosh, loviya, makkajo'xori yoki boshqa o'simliklar urug'i, Petri kosachalari, filtr yoki bosma qog'oz, analistik tarozi, quritgich shkafi, vazni aniqlangan byukslar, eksikator, skalpel yoki pichoq.

**Ishni bajarish tartibi.** Nafas olish jarayonida kislorod o'zlashtirilib, suv va karbonat angidrid ajralib chiqishi jarayonida, o'simliklar to'qimasidagi organik moddalar ma'lum miqdorda sarflanadi.

Buni aniqlash uchun quyidagi ishlar bajariladi. Chigit, mosh yoki makkajo'xori urug'laridagi suv va absolyut quruq modda miqdorini aniqlash uchun ularning har qaysidan 50-100 donadan sanab olinadi va vazni ma'lum bo'lgan byukslarga solib, analistik tarozida tortiladi. Umumiyl vaznidan byuksning vaznini ayirib, uning vazni aniqlanadi va jadvalning a grafasiga yoziladi.

Urug'lar solingan byuks (qopqoqlari ochiq holda) quritgich shkafda 100-105° issiqlikda bir-ikki soat qoldiriladi. Byuks qopqog'ini yopib, quritgich shkafidan olinadi va sovitiladi. Byukslar obdan sovigach, ularning vazni o'lchanadi va umumiyl vaznidan byuksning vazni ayirib, urug'ning absolyut quruq vazni aniqlanadi va jadvalning b grafasiga yoziladi.

Urug'lar tarkibidagi suv miqdori foiz hisobida quyidagi tenglama muvofiq topiladi va v grafaga yoziladi:

$$B = \frac{a - b \cdot 100}{a}$$

Nafas olishda sarflangan organik moddalar miqdorini aniqlash uchun chigit, mosh, makkajo'xori donidan tarozida 50-100 dona sanab olib, Petri kosachasiga alohida-alohida joylashtiriladi va bo'rtishi uchun ustiga 25 ml suv qo'yib ertalabgacha qoldiriladi. Ertasiga ular suvdan olinib, ichiga 2 qavat filtr yoki bosma qog'oz solingan Petri kosachasiga teriladi. Ularning usti bir qavat filtr qog'oz bilan yopiladi. Bo'rtgan chigit va urug'larni nam holda saqlash uchun idishga 10 ml suv quyib undirish uchun qorong'i joyga qo'yiladi. Ularning suv bilan ta'minlanganligi har kuni kuzatib turiladi.

Tajriba vaqt tugagandan so'ng Petri kosachasidagi ungan urug'lar vazni aniqlanadi. Umumiyl vaznidan byuksning vaznini ayirib, maysalarning ho'l vazni topiladi va  $a_1$  grafaga yoziladi.

Maysalarning absolyut quruq vazni ham urug'larning absolyut quruq vaznini aniqlagandek aniqlanadi va  $b_1$  grafaga yoziladi.

Maysalar tarkibidagi suv miqdori ham yuqorida ko'rsatilganidek, foiz hisobidan aniqlanadi va  $v_1$  grafaga yoziladi:

$$b_1 = \frac{a - \delta \cdot 100}{\delta}$$

Nafas olishda sarflangan organik modda miqdorini gramm hisobida topish uchun urug' va chigitning absolyut quruq vazni (b) dan maysalarning absolyut quruq vazni ( $b_1$ ) ayrıladı va j grafasiga yoziladi. Shu sonni foiz hisobida ko'rsatish uchun quyidagi tenglama asosida aniqlanadi va 3- grafaga yoziladi.

$$Z = \frac{\delta - \delta \cdot 100}{\delta}$$

Tajribada aniqlangan ma'lumotlar bir hafta davomida nafas olish vaqtida sarflangan organik modda miqdorini ifodalaydi.

### Vazifa:

1. Tajriba uchun urug'lar tanlash va ularning absolyut quruq og'irligini aniqlash.
2. Tanlangan urug'larni bir hafta davomida Petri kosachalarida o'stirish va ularni absolyut quruq og'irligini aniqlash.
3. Olingan ma'luotlar asosida unayotgan urug'larning nafas olish jadalligini aniqlash.

## O'SIMLIKLARNING O'SISHI VA RIVOJLANISHI

O'sish va rivojlanish o'simlikning butun ontogenet davrini o'z ichiga oladi va ular bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, o'sish asosida rivojlanishni, rivojlanish asosida esa o'sishni ko'rish mumkin.

O'sish deganda ko'pincha miqdoriy o'zgarishlar namoyon bo'ladi, bunda o'simlikni bo'yi, yo'g'onligi va massasini ortishini ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Tez o'suvchi o'simliklarning tanasi yo'g'on va yirik bo'ladi. O'sishi sekin, lekin rivojlanishi tez bo'lgan o'simliklarning tanasi ingichka o'zлari esa kichik bo'ladi. O'sish va rivojlanish hujayra va to'qimalardagi moddalar almashinuvining jadalligiga bevosita bog'liqdir.

O'sish-o'simlik ontogenezing eng faol jarayonidir. Bu davrda sodir bo'luvchi barcha fiziologik-biokimiyoviy jarayonlar yangi hujayralar va to'qimalarning massasini ortib borishini taminlaydi. O'simliklarning o'sishi uning ontogenezi davomida doimiy ravishda kuzatiladi. O'sishni faqat o'simlikning nobud bo'lishi to'xtatishi mumkin.


### 22-laboratoriya ishi. Ildiz tizimi hajmini aniqlash.

Barcha o'simliklarda o'sish jarayoni doimiy xarakterga ega bo'lib, u meristematisk to'qimalarning faoliyatiga bog'liqdir. Meristema to'qimalarini tashkil etuvchi hujayralarning bo'linib turishi natijasida o'simliklar bo'yiga va eniga o'sadi. Bo'yiga o'sishni ta'minlovchi meristema birinchi meristema deyiladi. Ular o'simliklarning yer usti hamda ildiz tizimining bo'yiga o'sishini ta'minlaydi. Ikkilamchi meristema, ya'ni kambiy hujayralarining bo'linishi natijasida asosan o'simliklarning yo'g'onlanishi sodir bo'ladi. Ildizning o'sishini quyidagi tajribada ko'rish mumkin.

**Mashg'ulotning maqsadi.** Turli xil o'simliklarning unayotgan urug'larida ildizning o'sish qismlarini aniqlash.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** No'xat, loviya, kungaboqar va bodringning ungan urug'lari, tush, ingichka ip, millimetrlı lineyka, termostat, ho'l kamera uchun banka tiqini, filtr qog'izi, ignalar.

**Ishni bajarish tartibi.** Undirilgan no'xat, loviya, g'o'za yoki boshqa biror o'simlikning urug'i



1-1,5 sm uzunlikdagi to'g'ri o'sgan ildizi bilan olinadi. So'ngra ildizga qora tush bilan har 1 mm da ip yoki ingichka pero bilan chiziqlar chiziladi.

Shunday qilib chizilgan ildizlarning 4-5 tasini 20-rasmida ko'rsatilgani singari nam kameraga joylashtiriladi.

Nam kamera yasash uchun stakan yoki banka olinib, uning 1/3 dan qismiga suv solinadi ham devorlariga filtr qog'oz yopishtiriladi. Urug'lar esa igna bilan idish tiqiniga mahkamlanadi va idishga joylashtiriladi. Bu ildizli nam kamera 20-25<sup>0</sup>S haroratlari termostatga saqlanadi.

## **22-rasm. Ildizning o'sishini aniqlaydigan namli idish**

1.shisha idish; 2-po'kak qopqoq; 3-ignalar; 4-o'simlik urug'lari

Oradan 24 soat o'tgandan so'ng ildizdagi chiziqlar orasi millimetrlar bilan o'lchanib, ularning qancha uzayganligi aniqlanadi va jadvalga yoziladi.

Jadvaldagagi ma'lumotlardan foydalananib, ildizning qaysi qismida o'sish qanday tezlikda borishi aniqlandi.

## **23-rasm. *Valeriana officinalis L.* ildizining o'sish va rivojlanishi**

### **Vazifa:**

1. O'simliklarning undirilgan urug'larini tayyorlash.
2. Namli kameralarni tayyorlash va tajribani o'tkazish.
3. Tajriba natijasilarin aniqlab xulosa yozish.


## **23-Laboratoriya ishi.O'simliklarda geotropizm harakatlari**

O'simliklarda bir tomonlama ta'sir etuvchi tashqi sharoit omillariga javoban hosil bo'lган harakat turlariga tropizm harakatlari deyiladi. Agar o'simlik yoki uning ayrim organlari ta'sir etuvchi omil tomonga qarab harakatlansa, bunday harakat musbat tropizm deyiladi. O'simliklarda geotropizm, fototropizm, gidrotropizm, xemotropizm va boshqa tropizm harakatlari bo'lishi mumkin.

**Mashg'ulotning maqsadi.** O'simliklarda sodir bo'ladigan geotropizm harakatlarini kuzatish.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** 1-2 l hajmdagi shisha banka yoki silindrlar, bankani yopish uchun oyna, kvadrat shakldagi shisha plastinka, yumshoq filtr qog'oz, paxta, unayotgan urug'lar, termostat.


**Ishni bajarish tartibi.** Bu tajribani o'tkazish uchun kvadrat qilib kesilgan shisha plastinkasining ustiga filtr qog'ozi o'raladi. So'ngra unga 5-6 ta ungan o'simlik urug'inining ildizi to'g'rilanib, igna yordamida filtr qog'oziga biriktirib qo'yiladi. Shu tartibda tayyorlangan urug'lar ichiga suv solingan bankaga vertikal holda joylashtiriladi. Bankaning og'zi oyna bilan yopiladi. Ildizning o'sishiga qulay sharoit yaratish uchun urug' joylashgan banka harorati 18-20<sup>0</sup>C bo'lган termostatga qo'yiladi. Ildizlarning uzunligi 5-10 sm ga yetgandan keyin, ularning yuqorigi poyalik tomonini pastga qaratib, ya'ni plastinka 180<sup>0</sup> aylantirib qo'yiladi (22-rasm). Oradan 1-2 kun o'tgach tajribada yuz bergan o'zgarishlar diqqat bilan aniqlanadi va rasmi chiziladi. Bu tajribaga asosan poya harakatlanishi manfiy geotropizm, ildizning harakati esa musbat getotropizm ekanligi aniqlanadi. Chunki, bunday harakat yerning tortish kuchiga asoslangan.



## 24-rasm. O'simliklardagi geotropizm harakati

### Vazifa:

1. Filtr qog'ozni yopilgan shisha plastinka tayyorlash.
2. Shisha plastinkaga unayotgan urug'larni qadash.
3. Qadalgan urug'larni suvli idishga vertikal holda joylashtirish.



4. Ildiz uzunligi o'rtacha 5 sm ga yetgandan keyin urug'li plastinkani 180° aylantirib qo'yish.
5. Tajribani kuzatish va xulosa.

## 24-laboratoriya ishi.O'simliklar o'sishiga yorug'likning ta'sirini aniqlash

**Kerakli asbob va reaktivlar:** g'o'za, no'xat, kungaboqar o'simtalar, lineyka yoki millimetrali qog'oz, shkaf.

O'simliklarning o'sishi uchun yorug'lik muhim ahamiyatga ega. O'simlik yashil barglarida (organlarida) fotosintez jarayonining borishi yorug'likka tubdan bog'liq bo'ladi. Yorug'lik bo'lmasa fotosintez bo'lmaydi, o'simliklarda organik modda sintezlanmaydi. Ammo, o'simliklarning bo'yiga o'sishi yorug'likda sekinlashadi yoki butunlay to'xtaydi. Qorong'ulikda, o'sish jarayonida ishtirok qiladigan gormon-auksin sintezlanadi. Auksin konsentratsiyasining o'sish nuqtalarida oshishi, o'sish jarayonining tezlashuviga olib keladi. Shu bilan birga, kechki soatlari, o'sishni tormozlovchi moddalar konsentratsiyasi kamayib ketgan bo'ladi. Yorug'likda poyaning bo'yiga o'sishi sekinlashadi, bargning o'sishi esa, tezlashadi.

**Ishning bajarilishi.** 6 ta gultuvak olib, ularga 1,5-2 kg dan yuvilgan qum solinadi. So'ngra tuvaklarning 2 tasiga 12 soat davomida suvda ivitilgan (bo'ktirilgan) chigit, 2 tasiga no'xat va qolgan ikkitasiga kungaboqar urug'laridan 5-6 tadan ekiladi va harorati 25-28°C bo'lgan yorug'lik tushmaydigan qorong'i xonalarga qo'yiladi. Urug'larni ekib bo'lgach, tuvaklardi namlikning normal bo'lishini ta'minlash uchun qum ustidan suv beriladi. Urug'lar 5-6 kun davomida, uzog'i bilan bir haftada unib chiqadi. Ko'karib chiqqan yosh nihollar knop eritmasi bilan oziqlantiriladi. Oziqlantirish oldidan tuvaklarda yaganalash o'tkazilib, natijada har bir tuvakda 3 tadan bir xilda rivojlangan ko'chatlar qoldiriladi.

### Yorug'likning o'simliklar o'sishiga bo'lgan ta'siri

O'simlik turi	Tajribaga-chacha bo'l-gan o'simliklarning o'rtacha bo'yisi (sm)	O'simliklarning sutka davomida o'sishi (sm hisobida)								
		1 sutka			2 sutka			3 sutka		
		kun duzi	tunda	jami sm	kun duzi	tunda	jami sm	kun duzi	tunda	jami sm
G'o'za										
No'xat										
Kunga-boqar										

Variantlardagi nihollarning bo'yi 4-5 sm ga yetishi bilan har bir tuvakdagi ko'chatlar lineykada o'lchanib, ularning o'rtacha bo'yi jadvalga yozib olinadi. Keyin tuvaklar 9-12 soat davomida yorug'likka chiqarib qo'yiladi. (bu yerda kun uzunligi hisobiga olinadi). Nihollarni yorug'likka qo'yganda ham harorat 25-28°C atrofida bo'lishi kerak. Tuvaklarni yorug'likda tutish vaqtı tugashi bilan o'simliklarning bo'yi o'lchanib yozib olinadi va ular qaytadan qorong'i xonalarga o'tkaziladi. Ertasi kuni ertalabki soatlarda nihollarning bo'yi o'lchanadi va qayta yorug'likka qo'yiladi. Bundan keyingi bajariladigan ishlar ham xuddi yuqoridagidek olib boriladi. Tajribadan olingen natijalarga asoslanib, o'simliklarning o'sishiga yorug'likning qanday ta'sir qilganligi haqida xulosa qilinadi.

## O'SIMLIKLARNING NOQULAY OMILLAR TA'SIRIGA CHIDAMLILIGI

O'simlikning o'sishi tashqi muhit omillariga chambarchas bog'liq bo'lib, tashqi omillar qancha qulay bo'lsa, o'sish jarayonlari jadal o'tadi va aksincha sharoit noqulay kelsa, o'simlikning o'sishi sustlashadi

O'simlikning muqobil o'sishiga barcha tashqi muhit omilari, xususan harorat, yorug'lik, namlik, gazlar tarkibi, mineral oziqlanish va boshqalar ta'sir etadi.

### **25-laboratoriya ishi. Protoplazmaning qovushqoqligini aniqlash (Genkel usuli)**

Sitoplazmaning qovushqoqligi hayot jarayonlarida muhim ahg'amiyatga ega. G.A.Genkel ma'lumotlariga ko'ra, sitoplazma qovushqoqligi yuqori yoki past bo'lishi mazkur o'simlikning issiqlikka va sovuqlikka chidamlilagini hamda moddalar almashinuvi jarayonining jadalligini ifodalaydi. Qovushqoqlik yuqori bo'lsa o'simliklarda moddalar almashinuvi sekinlashadi, lekin issiqlikka chidamlilik ortadi. Qovushqoqlik pasayganda esa aksincha, o'simliklarning sovuqlikka chidamliligi ortadi.

Qovushqoqlik pasayganda esa aksincha, o'simliklarning sovuqqa chidamliligi ortadi.

**Mashg'ulotning maqsadi.** Turli xil o'simliklar protoplazmasining qovushqoqlik darajasini aniqlash.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Mikroskop, buyum va qoplag'ich oynalar, ustara, shakar eritmasi, probirkalar, qopqoqli kichik byukslar, qizil neytral indikatorining 1:5000 eritmasi, piyoz, aloe.

**Ishni bajarish tartibi.** Sitoplazmaning qovushqoqligini aniqlash uchun plazmolitik usul keng qo'llaniladi. Bunda hujayra tsitoplazmasining botiq plazmoliz holatiga o'tish vaqtı hisobga olinadi. Tsitoplazmaning qovushqoqligini aniqlash uchun o'simliklar bargining pastki epidermisidan kesik tayyorlanadi. Buning uchun o'rganilgan o'simlik organlaridan yupqa kesmalar tayyorlanadi. Agarda, to'qima rangsiz bo'lsa, ularning kesmalar qizil neytral buyog'i eritmasiga 10 minut davomida solib qo'yiladi. Kesmalar bo'yalgandan so'ng ular suvga o'tkaziladi. Bir molyarli saxaroza eritmasi tayyorlanib, uning bir tomchisi buyum oynasiga tomiziladi. Kesma suvdan olinnadi va filtr qog'ozi yordamida quritiladi. Kesma buyum oynasidagi eritmaga qo'yiladi va o'stiga qoplag'ich oyna yopiladi. Suv parlanmasligi va eritmaning kontsentratsiyasi o'zgarmasligi uchun qoplag'ich oynaaning chetlariga vazelin surkaladi. Kesma saxarozaga qo'yilgan vaqt belgilanadi va mikroskop orqali kuzatib boriladi. Hujayra tsitoplazmasida plazmoliz

turlarining hosil bo'lishi kuzatiladi va vaqt belgilanadi. Botiq plazmolizdan qavariq plazmolizga o'tish vaqt alohida aniqlanib, quyidagi jadvalga yozib boriladi.

Bu vaqt protoplazmaning qovushqoqlik darajasini ko'rsatadi. Agarda sukkulentlar protoplazmasining qovushqoqligi 3-8 soatga teng bo'lsa, mezofitlarniki 15-40 minutgacha bo'lishi mumkin.

### Vazifa:

1. Aloe va piyoz po'stidan kesmalar tayyorlash va bo'yash.
2. Bo'yalgan kesmalardan maxsus preparatlar tayyorlash.
3. Mikroskop ostida preparatdagi plazmoliz darajasini kuzatish va vaqtini belgilash.
4. Rasmlarni chizish va xulosa yozish.

## **26-laboratoriya ishi.O'simliklarning issiqlikka chidamliligini aniqlash (matskov usuli)**

Yuqori haroratning o'simlikka zararli ta'siri asosan ikki xil bo'ladi. Yuqori harorat ta'sirida birinchidan o'simliklarda modda almashinuvi jarayonining buzilishi natijasida zararli moddalar yig'ilishi va ikkinchidan protoplazma oqsillarining ivishi hujayralarning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. O'simliklarning issiqliqqa chidamliligini har xil yuqori harorat ta'sirida zararlanish darajasiga qarab aniqlanadi.

**Mashg'ulotning maqsadi.** Har xil o'simliklarning issiqlikka chidamliligini aniqlash.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Har xil o'simlik barglari 0,2 n HCl eritmasi, suvli hammom, termometr, chinni idishlar, pinset, gaz plitasi.

**Ishni bajarish tartibi.** Bu mashg'ulotni o'tkazish uchun 5-6 xil o'simlikning har qaysisidan o'ntadan barg kesib olinadi. Suv hammomi 40°C gacha isitilib unga tekshiriladigan o'simliklarning barglari solinadi. Bu haroratda ular 30 minut saqlanadi. Vaqt o'tgandan so'ng hammomdagи har xil o'simlik barglaridan bittadan olib, 3-7 minutga sovuq suvga solinadi. Undan keyin barglarni suvdan olib, minut yassi idishdagi qo'yilgan 0,2 n HCl eritmasiga solinadi va minut kuzatiladi. Bu vaqtda suvli hammom harorati 5°C ga ko'tariladi va 10 minut o'tgach idishdan yana bittadan barg olib sovuq suvga va undan so'ng kislota eritmasiga solinadi. Suvning harorati har 10 minut o'tishi bilan 50°, 55°, 60°, 65°, 70°, 75°, 80° gacha oshirilib turiladi. Hammomdagи suvning harorati har 5° gacha ko'tarilgan sari yuqorida o'tkazilgan ishlar takrorlanadi (ya'ni bittadan barg olinadi).

Kislota eritmasida 20 minut turgandan so'ng, ular olinib qog'oz ustiga yoyib qo'yiladi. Tajriba natijalari jadvalga yoziladi.

### **O'simliklarning issiqlikka chidamliligini aniqlash**

Tekshiriladigan O'simliklar nomi	Barglarning qo'ng'ir rangag kirish darjasи								
	40°	45°	50°	55°	60°	65°	70°	75°	80°

O'simlik bargining issiqlikka chidamlilik darjasи bargda hosil bo'lган qo'ng'ir dog'larga qarab quyidagi ballar bo'yicha aniqlanadi: 1 ball – bargda kam dog'lar hosil bo'lган bo'lsa, 2 ball – o'rtacha, 3 ball – kuchli, 4 ballda esa o'simlik bargi batamom nobud bo'lган.

O'simlik barglarining qo'ng'ir rangga kirishi sababi xlorofill molekulasiidagi Mg metalli o'rniga xlorid kislotasining vodorod atomi almashinib joylanishi natijasidir.

Agar o'simliklarning hujayra shirasi nordon bo'lsa, barglar kislota eritmasiga solinmasa ham qo'ng'ir rangga o'tishi mumkin.

**Vazifa:**

1. Turli o'simliklardan 10 tadan shakli bir xil bo'lgan barglarni tayyorlash.
2. Barglarni suvli hammomda turli haroratlarda saqlash.
3. Isitilgan suvdan olingan barglarni kislotali eritmada saqlash.
4. Barglarni qog'ozga yoyib, uning issiqlikka chidamlilik darajasini aniqlash.
5. Xulosa qilish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdullayev R.A., Asomov D.K., Beknazarov B.O., Safarov K.S. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy lar.-Toshkent, Universitet, 2004.- 196 s.
2. Qodirova D.N, Bug'doyning ayrim turichidagi formalarining o'sishi va rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari, Biol. fan. nomzodi dis. –Toshkent: O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti. 2011.- 73-bet
3. Abdunazarov E.E. Toshkent vohasi sharoitida *Valeriana officinalis* L. ning introduktsiyasi va bioekologik xususiyatlari: Biol. fan. nomzodi dis. -Toshkent: O'zR FA «Botanika» IICHM, 2010. –124 b.
4. Beknazarov B.O.
5. O'simliklar fiziologiyasi. -Toshkent, Aloqachi , 2009.- 536 s.
5. Gelston A.,Devis P., Setter R. Jizn zelenogo rasteniya.-Moskva, Nauka, 1983.-550 s.
6. Lebedev S.I. Fiziologiya rasteniy.-Moskva, Kolos, 1982.-544 s.
7. Libert E. Fiziologiya rasteniy.-Moskva, Mir, 1976.-244 s
8. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya asoslaridan amaliy mashg'ulotlar.-Toshkent, O'qituvchi, 1990.-192 b.
9. Polevoy V.V. Fiziologiya rasteniy.-Moskva, Vysshaya shkola, 1989.-464 s.
10. Sottiboev I.K., Qo'chqorov Q. O'simlik ho'jayrasi.-Toshkent, O'qituvchi, 1978.-450 b.
11. Xo'jaev J.X. O'simliklar fiziologiyasi. -Toshkent, Mehnat, 2004. -222 b.
12. Xo'jayev J.X., Keldiyorov X.O., Jo'rayeva Z.J., Atayeva Sh.S. O'simliklar fiziologiyasi fanidan lari. –Samarqand, 2005.-130 s.
13. Shkolnik M.YA. Mikroelementы v jizni rasteniy.-L.: Nauka, 1974.-324 s.

